

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT ARXITEKTURA QURILISH INSTITUTI

MATMURODOV F.M.

BOJXONA NAZARIYASI

(5.340.200 – Menejment (tarmoq bo'yicha))

O'QUV QO'LLANMA

TOSHKENT

Matmurodov F.M. Bojxona nazariyasi. O'quv qo'llanma. TAQI, 2005 y. 110 bet.

O'quv qo'llanmada bojxona iqtisodiyotining mavjud axborotlari umumlashtirilgan, boshlang'ich nazariy tanishuv bilimlar bayon etilganligi, hamda ma'lumotlar nazariy asosda berishga harakat qilingan.

Kitobda quyidagi savollar bayon qilingan: bojxona faoliyatining va organlarining menejmenti; bojxona yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi tuzilmalari; mamlakatning bojxona siyosati, nazoratini amalga oshirish, rejimlari va bojining stavkasi; bojxona to'lovlari, deklarasiyasini to'ldirish va rasmiylashtirish tartibi; bojxona statistikasi ko'rsatkichlari va maxsus bojxona statistikasi tashqi iqtisodiy faoliyat bojxona munosabatlari; tovarlar qiymati bojxona bahosini chiqarishning usullari, bojxona qiymatini nazariy aniqlash va boj stavkalarining nazariy hisobi; bojxona to'lovlarini kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatini berish tartibi va nazariy hisobi; elektron deklaratsiyalash tizimi.

Ushbu o'quv qo'llanma 5.340.200 – Menejment (tarmoq bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bakalavrlari fundamental fanlari qatorida o'qishi mumkin, tarmoq iqtisodiyoti iqtisodchi talaba bakalavrlari, hamda iqtisodchi mutaxassislar uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya qilish mumkin.

Taqrizchilar:

1. TDIU ning «Bojxona ishi va logistika» kafedrasida dotsenti Aliev A.A.
2. TAQI Iqtisodiyot fakulteti «Menejment va tadbirkorlik» kafedrasida dotsenti, i.f.n. Nurimbetov R.

Toshkent arxitektura – qurilish instituti ilmiy – uslubiy kengashi iqtisodiyot ta'limi mutaxassisliklari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etgan.

Mundarija

	bet
Kirish	6
1 bob. Bojxona nazariyasi o'quv kursining predmeti, vazifalari va mamlakatning bojxona siyosati	
1.1 Bojxona nazariyasi o'quv kursining predmeti	8
1.2 Bojxona iqtisodiyoti kursining mohiyati va vazifalari	9
1.3 Bojxona siyosatini tarkibi va mohiyati	11
1.4 Bojxona siyosatini tashkil etuvchi iqtisodiy asoslari	16
1.5 Bojxona ombori faoliyatini lisenziyalashni tashkil etish	17
2 bob. Bojxona faoliyatining va organlarining menejmenti	
2.1 Bojxona organlari tizimi va shaxsiy tarkibi	20
2.2 Bojxona qo'mitasining tashkiliy menejmenti	24
2.3 Davlat bojxona organlari komplektasiyasi	27
2.4 Davlat bojxona organlarining hukumat va boshqaruv organlari shuningdek huquq tartibot organlari bilan aloqasi	29
2.5 Yagona avtomatlashgan axborot tizimining (YaAAT) maqsadlari va vazifalari	31
2.6 Bojxona yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi tuzilmalari menejmenti	37
3 bob. Bojxona nazoratini amalga oshirish	
3.1 Bojxona nazoratining formalari, tartibi va chegaralari	39
3.2 Bojxona nazorati ostida tovarlar va transport vositalarini olib o'tishdagi asosiy talablar	44
3.3 Respublika bojxona chegarasidan tovarlar va transport vositalarini olib o'tishning huquqiy asoslari	45

3.4 Xorij mashinalarini import jarayonida boj stavkalarining nazariy hisobi	46
4 bob. Bojxona rejimlari	
4.1 Reeksport, reimport va tovarlar tranziti	48
4.2 Vaqtincha saqlash va davlat foydasiga voz kechish	50
4.3 Respublika bojxona chegarasidan tovarlar va transport vositalari shuningdek ayrim turdagi tovarlarni olib o'tishni taqiqlash, cheklash tartibi	51
5 bob. Bojxona to'lovlari	
5.1 Bojxona to'lovlarining turlari	56
5.2 Bojxona tarifining huquqiy asoslari	60
5.3 Bojxona to'lovlarini kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatini berish tartibi va nazariy hisobi	63
5.4 Bojxona imtiyozlari va preferensiyalari	70
5.5 TIF TN interpretasiyasining asosiy vazifalari	73
6 bob. Tovarlarning bojxona qiymatini aniqlash	
6.1 Tovarlarning qiymati bojxona bahosini chiqarishning usullari	75
6.2 Bojxona qiymatini nazariy aniqlash	82
6.3 Qo'shilgan qiymat solng'inn hisoblash	84
7 bob. Bojxona rasmiylashtiruvi va deklarasiyasi	
7.1 Deklarasiyalash jarayoni va bojxona brokeri	
7.1.1 Deklarasiyalash shakllari va muddati	87
7.1.2 Deklarant	90
7.1.3 Bojxona brokeri	92
7.2 Bojxona deklarasiyasini to'ldirish va rasmiylashtirish tartibi	92
7.3 Elektron deklarasiyalash tizimi	96
8 bob. Bojxona statistikasi	
8.1 Bojxona statistikasining asosiy vazifalari va ob'ektlari	98
8.2 Bojxona statistikasi ko'rsatkichlari va maxsus bojxona	

statistikasi	100
9 bob. Tashqi iqtisodiy faoliyat bojxona munosabatlari	
9.1 Xalqaro savdoni boj tarifi bilan tartibga solish	
9.1.1 Boj tarifining tovar nomenklaturasi	103
9.1.2 Bojxona bojining stavkasi	105
9.2 Tashqi iqtisodiy faoliyatning xalqaro reglamentasiyasi	107
Adabiyotlar ro'yxati	109
Ilova. Bojxonaning tushunchalari	110

Kirish

Ko'p davlatlar ishbilarmonlari o'zlarining ichki bozoriga tashqi raqobatchilarni kiritishga qarshidirlar. Ushbu holatni tushunish oson, ya'ni ichki ishbilarmonlar tashqi raqobat xarajatlarini kamaytirishga, sifatni oshirishga, quvvatsizlanmaslikka majbur bo'ladi. Xaridorlar esa orzon va imkoni boricha sifatli mahsulot sotib olishdan manfaatdorlar. Ushbu holat ko'plab davlatlarning siyosiy va iqtisodiy manfaatlarini ifodalovchi va iqtisodiyotda chuqur islohatlarni olib borishni talab qiladi. Davlat ushbu holatda shunday bojxona siyosatini amalga oshirishi lozimki, mamlakat to'laligicha manffaatga ega bo'lishi, shuningdek ichki bozorga import tovarlarining kirib kelishini kamaytirishni bosqichma – bosqich amalga oshirishi lozim.

Korxonaning tovar siyosatini belgilashda ilmiy – texnik mahsulotlar bozorining ta'siri katta. Ilmiy – texnik mahsulotlar bozori deganda yangi texnologiyani kashf qilgan ixtirochilar bilan shu kashfiyotga egalik qilish huquqini sotib oluvchilar o'rtasidagi aloqalar tushunilddi. Ilmiy – texnik mahsulotning ob'ekti sifatida loyiha muhandislik mahsulotlar, ilmiy – texnik hujjatlar, informasion xizmatlar va ilmiy adabiyotlar ko'rib chiqiladi. Ilmiy – texnik mahsulotlarga egalik qilishga ilmiy tadqiqot va konstruktorlik tajribalarini doimo olib boruvchi ilmiy tashkilotlarga ruxsat beriladi. Ushbu ilmiy – texnikaning so'ngi yutuqlari mamlakatga xorijni imtiyozlar asosida olib kelinishi muhimdir va o'z navbatida respublikaning shunga o'xshash yutuqlar eksport qilinishi jadal ravishda olib borilishiga bojxona tarif siyosati, preferensiyalari va nazorati yordam berishi dalzarb vazifadir.

Iqtisodiy nuqtai nazardan rivojlangan har bir davlat iqtisodiyotga bilvosita ta'sir etish va o'z daromadlarini shakllantirishda bojxona soliq va yig'implarining bir butun tizimini

qo'llaydi. Bu tizim, asosan to'g'ri va bilvosita soliqdardan iboratdir — bilvosita (egri) soliqlar tizimiga bojxona organlari tomonidan undiriladigan, qo'shilgan qiymat va aksiz soliqlari hamda bojxona yig'implari kiradi. Ushbu boj soliq va yig'implari ikki va ko'p tomonlama olinmaslikka erishish g'oyat muhim masaladir.

O'quv qo'llanmada quyidagi savollar yoritilgan:

- bojxona faoliyatining va organlarining menejmenti;
- bojxona yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi tuzilmalari;
- mamlakatning bojxona siyosati;
- bojxona nazoratini amalga oshirish;
- bojxona rejimlari;
- bojxona to'lovlari;
- xorij mashinalarini import jarayonida boj stavkalarining nazariy hisobi;
- bojxona to'lovlarini kechiktirib yoki bo'lib — bo'lib to'lash imkoniyatini berish tartibi va nazariy hisobi;
- tovarlarning bojxona qiymatini aniqlash;
- bojxona rasmiylashtiruv va deklarasiyasi;
- elektron deklarasiyalash tizimi;
- bojxona statistikasi;
- tashqi iqtisodiy faoliyat bojxona munosabatlari.

1 bob. Bojxona nazariyasi o'quv kursining predmeti, vazifalari va mamlakatning bojxona siyosati

1.1 Bojxona nazariyasi o'quv kursining predmeti

Bojxona iqtisodiyoti tarkibini aniqlash prinsipial xarakterga ega. Ushbu iborani aniq va to'liq ifodalash, shuningdek tovar tarkibini va bojxona siyosatini tushunib etgan holda unga tegishli institutlar va yuridik me'yorlar strukturasi tarkibiy ajratib ko'rsatish lozim.

Respublika bojxona kodeksida bojxona ishi to'g'risida quyidagi ta'rif berilgan: respublika bojxona chegarasidan tovarlar va transport vositalarini olib o'tish, bojxona to'lovlarini to'lash bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish, bojxona nazorati va bojxona siyosati tarkibining vositalarini hayotga tatbiq qilish bojxona ishini tashkil qiladi. Ushbu keltirilgan ta'rif bir vaqtning o'zida ham bojxona ishi ham uning tarkibiy qismlari to'g'risida tushuncha beradi.

Bojxona kodeksida ko'rsatilgandan tashqari bojxona ishini tashkil qiluvchi qismlariga bojxona ta'rifini tartibga solish, bojxona statistikasi va tashqi iqtisodiy faoliyatning tovar nomenklaturasi (TIF TN), kontrabanda va boshqa bojxona ishidagi jinoyatlarga qarshi kurash, bojxona qonunchiligini buzilishini ko'rib chiqish kiradi.

Ushbu tartibda bojxona ishi strukturasi quyidagi bojxona siyosati yurituvchi qurollardan yoki elementlardan iborat:

- bojxona rejimi;
- bojxona — tarifini tartibga solish;
- bojxona rasmiylashtiruvi;
- bojxona ta'minoti;
- bojxona nazorati;
- bojxona statistikasi va TIF TN;

- bojxona ekspertizasi;
- kontrabanda va boshqa bojxona ishidagi jinoyatlarga qarshi kurash;
- bojxona qonunchiligi buzilishi to'g'risida ko'rib chiqish va ishlab chiqarish.

Yuqorida keltirib o'tilgan bojxona ishi to'g'risidagi tushunchalar respublika bojxona ishini yuritishda asosiy elementlardan biri bo'lib xizmat qiladi.

1.2 Bojxona iqtisodiyoti kursining mohiyati va vazifalari

Bojxona ishining umumiy jixatlaridan kelib chiqib bu soxada ko'p marta ishlatiladigan termin va kategoriyalarda to'xtalish zarur. Bular quyidagi tushunchalardir: bojxona, bojxona organlari, bojxona organlari tizimi, bojxona xizmati, bojxona hududi, bojxona chegarasi.

Bojxona tushunchasi turkcha «tamg'a» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, xon mahsulotlariga yopishtirilgan. Keyinchalik «tamg'a» bozor va savdo rastalarida to'lanadigan soliqqa aylandi. «Tamg'a» so'zidan «tamg'alash» fe'li kelib chiqdi, ya'ni boj olingan mahsulotga tamg'a qo'yish. Tamg'a qo'ygan shaxsni bojxonachi deb atala boshlandi. Tamg'a qo'yish joyini esa — bojxona. Zamonaviy tushunchada — bojxona davlatning bojxona siyosatini va bojxona huquqini amalga oshiruvchi hukumat xizmatidir.

Bojxona organi — bu davlatning ijro etuvchi organlarining bevosita bojxona ishini amalga oshiruvchi huquqini himoyalovchi organidir.

Bojxona organlari tizimi ostida bojxona ishining moddiy komponentini tushinish lozim — xususiy holda ijro etuvchi va taqsimlovchi davlat organlari qaysiki bojxona siyosatini amalga

oshiradi. Shuni alohida aytib o'tish lozimki, xohlagan tizimning belgisi bo'lib ma'muriy bo'ysunish hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan bojxona nazorati tizimiga qator davlatlar tijorat tashkilotlar uyushmalarini kiritmaslik maqsadga muvofiq. Zero ular o'z faoliyati davomida alohida bojxona masalalarni echish bilan shug'ullansalarda mahalliy va markaziy bojxona boshqarmalariga bo'ysunmaydi.

Bojxona xizmati termini keng va tor ma'noda ishlatilishi mumkin.

Bojxona kodeksiga ko'ra respublika bojxona hududi — quruqlikdagi hudud, hududiy va ichki suvlar hamda ular ostidagi havo makoni, o'z ichiga mutloq iqtisodiy zonasida joylashgan bojxona ishiga nisbatan mutloq yuristiksiyaga ega bo'lgan suniy orollar, qurilma va inshootlarni oladi. Qonunda belgilangan holatlardan tashqari erkin bojxona zonalari va erkin omborlaridagi hududlar mamlakat bojxona hududidan tashqari joylashgan hududlar sifatida qaraladi.

Bojxona chegarasi tushunchasi respublika davlat chegarasi bilan muvofiq keladi va mamlakat hududida mavjud bo'lgan erkin bojxona zonalari va erkin omborlar hududlari bundan istisno bo'lishi mumkin.

Bojxona boshqaruvi tizimi tor ma'noga ega. Bu faqatgina bojxona ishida hukumat mexanizmi bilan bog'liq faoliyat shakllarini o'z ichiga oladi.

Bojxona ishi boshqaruvi bojxona siyosatini hayotga tatbiq etish va yuqori davlat organlari Qonunchilik xokimiyati, Prezident, Vazirlar Mahkamasi majburiyatlari tarkibiga kiritiladi.

Bojxona nazorati — bojxona organlari tomonidan qonun hujjatlariga va xalqaro shartnomalarga rioya etilishini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladigan chora — tadbirlar majmuidir.

Bojxona rasmiylashtiruvi — bojxona organlarining mansabdor shaxslari tomonidan tovarlar va transport vositalari ustidan bojxona nazoratini ta'minlash maqsadlarida o'tkaziladigan operasiyalar majmui.

Bojxona ta'minoti — bojxona organlari tomonidan plombalar, muhr qo'yish, raqamli, harfli va boshqa tamg'alar identifikasiya belgilari va shtamplarini qo'yish yo'li bilan amalga oshiriladigan transport vositalari va tovarlar, xonalar va boshqa joylarni bojxonada identifikasiyalash vositasi.

Bojxona rejimi — respublika bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlar va transport vositalari maqomini belgilaydigan qoidalar majmui.

1.3 Bojxona siyosatini tarkibi va mohiyati

Respublikada mamlakatning ichki va tashqi siyosatining tarkibiy qismi bo'lib hisoblanuvchi yagona bojxona siyosati amalga oshiriladi.

Bojxona siyosatining asosiy maqsadlari respublika bojxona hududida samarali bojxona nazoratini hamda tovar ayirboshlashni tartibga solishni ta'minlashdan, iqtisodiyotning rivojlanishini rag'batlantirishdan, ichki bozorni himoyalashdan iboratdir.

Bojxona siyosatini amalga oshirishda amaldagi qonunchilik va bojxona ishi to'g'risidagi qonun hujjatlaridan foydalaniiladi.

Bojxona ishi respublikaning bojxona chegarasi orqali tovarlar va transport vositalarini olib o'tish, boj to'lovlarini undirish, bojxona rasmiylashtiruvi, bojxona nazoratini amalga oshirish tartibi va shartlardan hamda bojxona siyosatini amalga oshirishning boshqa vositalaridan iboratdir.

Bojxona ishi respublika bojxona organlari tomonidan amalga oshiriladi. Respublikaning quruqlikdagi hududi, hududiy va ichki suvlari hamda ular ustadagi havo bo'shlig'i bojxona hududini tashkil etadi.

Respublika hududida erkin bojxona zonalari va erkin omborlar bo'lishi mumkin, ularning hududdari, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, respublika bojxona hududidan tashqarida joylashgan deb qaraladi.

Bojxona hududi sarhadlari, shuningdek erkin bojxona zonalari va erkin omborlarning chegaralari respublikaning bojxona chegarasi hisoblanadi.

Bojxona ishida respublikaning bojxona organi bojxona deklarasiyasini va boshqa hujjatlarni qabul qilib olayotgan kuni amalda bo'lgan qonun hujjatlari qo'llaniladi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Bojxona chegarasi orqali tovarlar va transport vositalari qonunga xilof ravishda olib o'tilgan taqdirda, tovarlar va transport vositalari bojxona chegarasi orqali olib o'tilgan kuni amaldagi qonun hujjatlari qo'llaniladi.

Agar respublikaning xalqaro shartnomasida bojxona haqidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

Quyidagi asosiy elementlar mavjud bo'lib, ularni tushuntirib o'tamiz:

Tovarlar — har qanday ko'char mol — mulk, shu jumladan valyuta va valyuta boyliklari, elektr, issiqlik energiyalari va energiya boshqa turlari, shuningdek intellektual mulk ob'ektlari, oldi—sotdi yoki ayirboshlash oboekti hisoblanuvchi bajarilgan ishlarning, ko'rsatilgan xizmatlarning natijalari;

Deklarant — tovarlarni olib o'tuvchi, tovarlar va transport vositalarini o'z nomidan deklarasiyalovchi, ko'rsatuvchi va taqdim etuvchi shaxs nomidan ish olib borayotgan bojxona brokeri;

Tovarlar va transport vositalarini bojxona chegarasidan olib o'tish — tovarlar yoki transport vositalarini har qanday usulda, shu jumladan xalqaro pochta jo'natmalarini yuborish, quvur transportidan hamda elektr uzatish liniyalaridan foydalanish yo'li bilan bojxona hududiga olib kirish yoki olib chiqish harakatlarini amalga oshirish. Shunday harakatlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- Tovarlar va transport vositalari bojxona hududiga olib kirilganda, shu jumladan erkin bojxona zonalari va erkin omborlar hududidan olib kirilganda — bojxona chegarasidan amalda o'tish;
- Tovarlar yoki transport vositalari bojxona hududidan olib chiqilganda, shu jumladan erkin bojxona zonalari va erkin omborlar hududiga olib chiqilganda — bojxona deklarasiyasini taqdim etish va tovar yoxud transport vositalarini olib chiqish maqsadini amalga oshiriga bevosita qaratilgan o'zga harakatni bajarish.

Iqtisodiy siyosat choralari — tovarlar va transport vositalarini respublikaga olib kirish hamda respublikadan olib chiqishga doir cheklovlar bo'lib, ular kvota belgilashni, lisenziyalashni, shuningdek respublika iqtisodiyotining jahon xo'jaligi bilan o'zaro hamkorligini tartibga solib turuvchi boshqa choralarni o'z ichiga oladi.

Tovarlar va transport vositalarini olib o'tuvchi shaxs — tovarlar va transport vositalarining mulkdorlari, ularni sotib oluvchilar, egalari yoxud ular bilan Kodeksda nazarda tutilgan harakatlarni o'z nomidan amalga oshirish uchun qonun hujjatlariga muvofiq yetarli bo'lgan boshqacha tarzda ishtirok etuvchi shaxslar.

Tashuvchi — tovarlarni amalda olib o'tuvchi yoxud transport vositalaridan foydalanish uchun mas'ul shaxs.

Dastlabki qaror — tovarning tasnifi, uning boj qiymati, qaysi mamlakatda tayyorlanganligi, bojxona to'lovlarining miqdoriga hamda bojxona ishiga oid boshqa masalalarga taalluqli bo'lgan bojxona organi chiqargan qaror.

Bojxona rasmiylashtiruvi — tovarlar va transport vositalari ustidan bojxona nazoratini ta'minlash maqsadida bojxona organlarining mansabdor shaxslari, amalga oshiradigan operasiyalar majmui.

Respublikaning bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan, shu jumladan tovar sifatida olib o'tiladigan transport vositalari bojxona organlari belgilaydigan joylarda to'xtaydi. Bu talab bajarilmagan taqdirda bojxona organlari transport vositalarini qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda majburlab to'xtatishga haqli.

Transport vositalarini to'xtatib turish muddati bojxona nazorati va bojxona rasmiylashtiruvi manfaatlariga zid tarzda qisqartirishi mumkin emas.

Transport vositalarini to'xtatib turish joylaridan jo'natib yuborish bojxona organining ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Transport vositalarining respublika bojxona chegarasidan o'tish joyi va vaqti tashuvchi tomonidan tegishli bojxona organi bilan kelishib olinadi.

Bojxona ta'minlovi — bojxona organlari, plombalar, muhrlar bosish, raqamli, harfli va boshqa markalar, qiyoslash belgilarini qo'yish, shtamplar bosish yo'li bilan amalga oshiriladigan tovarlar va transport vositalarini, binolar va boshqa joylarni qiyoslash vositasi.

Bojxona siyosatini mohiyatini olib borishdan oldin uning asosiy tushunchasini anglab olish lozim.

Bojxona siyosati — bu ichki va tashqi iqtisodiy manfaatlarni amalga oshirishda bozor munosabatlari sharoitida siyosiy va ijtimoiy—iqtisodiy o'arakterga ega bo'lgan maqsadlarni yo'naltiruvchi qonunchilik, ijro va nazorat me'yorlari tizimidir.

Ushbu berilgan tushuncha yuk siyosatini umumiy holda ifodalab beradi. Aniq asoslash uchun bojxona siyosatini davlatning ichki va tashqi siyosati sifatida qismlarga ajratib tushuntirib o'tamiz.

Bojxona siyosati o'z ichiga aniq maqsadlarni, tamoyil va vazifalarni olgan konsepsiyasiga asoslanadi. Bojxona tamoyillari xalqaro tajribalar bazasi ostida ishlab chiqiladi va Xalqaro savdo tashkiloti (XST) hujjatlariga kiritiladi. Mamlakat Prezidentining ichki va tashqi siyosati bazasi ostida ham ishlab chiqariladi va to'liq unga asoslanadi.

Davlatning ichki va tashqi siyosati bilan bojxona siyosati uzviy bog'liqligi aniq faktdir. Birinchidan, bojxona siyosati davlatning ichki siyosatini tarkibiy elementi bo'lib hisoblanadi. Bojxona siyosati qurollarini qo'llagan holda, tarif va notarif cheklashlarni amalga oshirishni, bir qator ichki siyosatni asosiy vazifalarni hal qilishga chaqiradi:

- milliy iqtisodiyotni har tomonlama tartibga solish;
- ichki bozorni himoya qilish;
- tarkibiy tuzilishni amalga oshirish;
- byudjetni foyda yoki daromad qismini to'ldirish.

Bojxona siyosati qurollari yoki uning tarkibiy elementlarini zaiflashuviga yo'l qo'yilsa, milliy iqtisodiyotga shuningdek iqtisodiy manfaatlarga katta zarar yetishi mumkin va mamlakat iqtisodiy—ijtimoiy islohotlarini amalga oshirilishini to'xtatib qo'yishi mumkin. Ikkinchidan, bojxona siyosati ichki siyosatning tarkibiy qismi sifatida huquqni himoyalovchi va davlat manfaatlarini, korxonalar

manfaatlarini, xo'jalik birlashmalari manfaatlarini, shu bilan birga yuridik va jismoniy shaxslar huquqlarini himoya qiluvchi bo'lib hisoblanadi. Ushbu siyosat ichki bozorni tashqi tovarlardan va buzishga olib keluvchi destruntil elementlardan himoya qilishga qaratilgan.

Bojxona siyosatining huquqni himoya qilish bazasi tarkibiga bojxona nazorati elementini kiritish mumkin, qaysiki unga tegishli bo'ladi:

- nazorat zonalarini va nazoratni tashkil etish maqsadida, ekspert va mutaxassislarni jalb etish;
- bojxona maqsadida zarur bo'lgan huquqiy hujjatlarni tekshirish;
- tovar va transport vositalarini tekshiruvchi, hisob va hisobotlar teshiruvi, huquq va omborxonalar tekshiruvi va boshqalar;
- tanlov prinsipini bojxona nazoratida qo'llagan holda zarar etkazmasdan taftish o'tkazish.

Uchinchidan, bojxona siyosati mamlakatning tashqi siyosatining tarkibiy qismi sifatida Davlat ta'minotiga va tashqi iqtisodiy manfaatlariga xizmat qiluvchi tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishga yordam beruvchi bo'lib hisoblanadi.

1.4 Bojxona siyosatini tashkil etuvchi iqtisodiy asoslar

Ko'p davlatlar ishbilarmonlari o'zlarining ichki bozoriga tashqi raqobatchilarni kiritishga qarshidirlar. Ushbu holatni tushunish oson, ya'ni tashqi raqobat xarajatlarni kamaytirishga, sifatni oshirishga, quvvatsizlanmaslikka majbur bo'ladi.

Xaridorlar esa orzon va imkoni boricha sifatli mahsulot sotib olishdan manfaatdorlar.

Ushbu holat ko'plab davlatlarning siyosiy va iqtisodiy manfaatlarini ifodalovchi va tushkunlikka tushurib yuboruvchi holatdir. Davlat ushbu holatda shunday siyosatni amalga oshirish lozimki, mamlakat to'laligicha yengib chiqsin, shuningdek ichki bozorga import tovarlarining kirib kelishiga yo'l qo'ymas.

Iqtisodiy va bojxona siyosatining asosiy ko'rinishlarini sanab o'tamiz:

1. Qisman cheklash siyosati ichki bozorga chet el tovarlarini kiritmaslik maqsadida amalga oshiriladi. Masalan: kinovideo mahsulotlari, bosma mahsulotlari, g'ayriqonuniy qarashlar va hokazolar.

2. Proteksionizm siyosati, (lotincha Protectio – yashirish, himoya qilish). Ushbu siyosat ichki bozorni tashqi raqobatdan himoya qilish maqsadida amalga oshiriladi.

Importni cheklash xaridorlarga va mamlakatga katta zarar yetkazishi ham mumkin. Chunki xalqaro mehnat taqsimotini foydalilik darajasi pasayadi. Yuqori boj belgilash eskirgan texnologiyani milliy ishbiarmonlar qo'llashiga olib kelmoqda.

Hozirgi sharoitda milliy mahsulot va eksportga yo'naltirilgan mahsulotlarga boj to'lovlari kamaytirilgan tartibi belgilanmoqda. Bu esa valyuta oqimini kirib kelishiga olib keladi va mamlakat iqtisodiyotini barqaror olib kelishiga sabab bo'ladi.

1.5 Bojxona ombori faoliyatini lisenziyalashni tashkil etish

Bojxona ombori – o'z ichiga binolar va (yoki) ochiq maydonchalar hududini olgan va tovarlari vaqtincha saqlash va

(yoki) bojxona ombori rejimlarida bojxona nazorati ostida saqlash uchun mo'ljallangan, maxsus ajratilgan va jihozlangan joylardir. Uni respublika yuridik shaxsi yoki bojxona organi ta'sis etadi va ochiq yoki yopiq turda bo'lishi mumkin. Ochiq turdagi bojxona omboridan har qanday shaxs foydalana oladi, yopiq turdagisi esa muayyan shaxslarning, odatda, ombor egasining tovarlarinni saqlash uchun yoki muayyan tovarlarni, shu jumladan aylanishi cheklangan tovarlarni saqlash uchun mo'ljallangan. Respublika bojxona organlari ta'sis etadigan bojxona omborlari ochiq turdagi bojxona omborlari hisoblanadi.

Bugungi kunda respublikada 380 dan ortiq bojxona ombori faoliyat ko'rsatyapti, ularning anchagina qismi yopiq turda. Shu yilning birinchi yarmida o'tkazilgan inventarizasiyadan keyin bir necha o'nlab bojxona ombori qonun talablariga nomuvofiqligi sababli lisenziyadan mahrum qilindi.

Bojxona omborining faoliyatini litsenziyalash — Davlat bojxona qo'mitasi va uning timsolida hududiy bojxona boshqarmalarining xos huquqidir. Lisenziya egaligida bojxona ombori sifatida foydalanish uchun mo'ljallanayotgan hudud, ombor va yordamchi binolar bo'lgan yuridik shaxsga — rezidentga, ular Bojxona ombori faoliyatini litsenziyalash to'g'risida nizom talablariga muvofiq bo'lishi sharti bilan, besh yilga beriladi. Talabgorning arizasiga ko'ra lisenziya besh yildan kam muddatga ham berilishi mumkin.

Lisenziya olish uchun talabgor litsenziyalovchi organga Bojxona ombori faoliyatini litsenziyalash to'g'risida nizomda belgilangan ro'yxatdagi hujjatlarni taqdim etishi kerak. Lisenziya berish yoki lisenziya berishni rad etish to'grisidagi qaror uni qabul qilish kunida ekspert komissiyasining ko'rishiga kiritiladigan barcha zarur hujjatlar bilan birgalikda lisenziya talabgorining arizasi olingan kundan

boshlab o'ttiz kundan ortiq bo'lmagan muddatda qabul qilinadi, Ekspert komissiyasi ularni o'rganib chiqqach, yigirma kundan ortiq bo'lmagan muddatda ekspert xulosasini tayyorlaydi. Bojxona organi unga asoslanib besh kun ichida qaror qabul qiladi va undan lisenziya talabgorini uch kun mobaynida xabardor qiladi. Lisenziya berish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqqanlik uchun, lisenziyalovchi organ qanday qaror qabul qilishidan qat'i nazar, mamlakatimizda belgilangan eng kam ish haqining besh baravari miqdorida yig'im undiriladi. Lisenziya berganlik va uning amal qilishini uzaytirganlik uchun esa eng kam ish haqining besh baravari miqdorida davlat boji undiriladi, u davlat bojiga kirim qilinadi.

Shuni aytish lozimki arizani ko'rib chiqish bosqichida bojxona organlari bojxona omborining konstruksiyasi, jihozlanishi va joylashgan joyiga nisbatan aniq talablarni belgilashga haqlidir. Chunonchi, bojxona omboriga yondashgan, bojxona nazorati zonasi hisoblangan hudud to'rt tomonidan panjara bilan o'rab olinishi hamda o'zbek, rus hamda ingliz tillarida "bojxona nazorati zonasi" degan belgi o'rnatib qo'yilishi, katta yuk transportining unga kirib chiqish imkoniyati ta'minlanishi, shuningdek hududida bojxona omborining bir qismi hisoblanmagan imorat va inshootlarga ega bo'lmasligi kerak.

Bojxona ombori doimo soz, ishlash holatidagi va uning bir me'yorda faoliyat ko'rsatishi uchun yetarli bo'lgan yuk ortish-tushirish va transport vositalari ombor asbob-uskunolari, aniqligi va o'lchov doirasi saqlash uchun mo'ljallangan tovarlarning xususiyatiga muvofiq keladigan tovarlarni tarozida tortish vositalari, aloqa vositalari (shu jumladan telefon, faks), tashkiliy texnika, mebel, boshqa zarur jihozlar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak.

Bojxona ombori faoliyatini lisenziyalash to'g'risida nizomga muvofiq lisenziyalovchi organ bojxona omborlari egalarining

reyestrini yuritadi. Davlat bojxona qo'mitasi olti oyda kamida bir marta bojxona organlarining rasmiy nashrlarida bojxona omborlari egalari reyestri, bojxona omborlari ro'yxatini, shuningdek reyestr va ro'yxatga kiritilayotgan o'zgartirishlarni e'lon qilinishi kerak.

Egasi bojxona organlari hisoblangan bojxona omborlari bojxona omborlari egalari reyestriga kiritilmaydi.

2 bob. Bojxona faoliyatining va organlarining menejmenti

2.1 Bojxona organlari tizimi va shaxsiy tarkibi

Bojxona ishini xalqaro normalar asosida, shuningdek tizimi va tuzilishi, vazifalarni takomillashtirish zaruriyati tug'ildi.

Respublika Davlat bojxona ko'mitasi respublikaning qonun hujjatlariga va xalqaro shartnomalariga muvofiq bojxona ishi, kontrabandaga, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalarning g'ayriqonuniy muomalasiga qarshi kurash masalalari bo'yicha xorijiy davlatlarning bojxona va boshqa organlari hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni amalga oshiradi.

Bojxona organlari respublikaning yagona bojxona siyosatini amalga oshirish va iqtisodiy manfaatlarni himoya qilish maqsadida tuziladi.

Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasining Qoraqalpog'iston respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo'yicha boshqarmalari, bojxona komplekslari va bojxona postlari bojxona organlaridir. Bojxona organlari o'z faoliyatida respublika Konstitutsiyasiga, Davlat bojxona xizmati to'g'risidagi qonunga, respublikaning boshqa qonun hujjatlariga va xalqaro shartnomalariga amal qiladilar.

Bojxona organlari qonun hujjatlariga muvofiq o'z faoliyatini davlat hokimiyati mahalliy organlaridan mustaqil tarzda amalga oshiradilar. Bojxona organlari o'z vakolatlari doirasida qabul qiladigan qarorlar barcha yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ijro etilishi shart. Bojxona organlari huquqini muhofaza qiluvchi organlar hisoblanadi va davlat byudjeti mablag'laridan ta'minlanadi. Respublika Davlat gerbining tasviri tushirilgan va o'z nomi bilan bitilgan muhrga ega.

Bojxona organlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari hamda qonun bilan muhofaza etiladigan manfaatlarini himoya qilish;
- respublikaning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va o'z vakolati doirasida uning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash;
- bojxona siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish;
- bojxona haqidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilish;
- bojxona to'lovlarini undirish;
- bojxona nazoratidan o'tkazilishi kerak bo'lgan tovarlar va transport vositalari shunday nazoratdan o'tkazilishini ta'minlash;
- bojxona haqidagi qonun hujjatlari buzilishini, shu jumladan kontrabandaning oldini olish, uni aniqlash va ularga chek qo'yish;
- tashqi iqtisodiy faoliyatga doir bojxona statistikasini hamda tovar nomenklaturasini yuritish, respublika xalqaro shartnomalarining bojxona ishiga oid qismidan kelib chiqadigan majburiyatlar bajarilishini ta'minlash.

Bojxona organlari o'z vakolatlari doirasida quyidagi huquqlarga egadirlar:

- tovarlar va transport vositalarini, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda esa, jismoniy shaxslarning o'zini ko'zdan kechirish, yuridik va jismoniy shaxslardan ko'zdan kechirish uchun tovarlar va transport vositalarini, shuningdek zarur hujjatlarini taqdim etishni talab qilish, valyuta nazoratini amalga oshirish, moliya, bank va boshqa tashkilotlardan shuningdek yuridik va jismoniy shaxslardan eksport—import operatsiyalarini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan axborot va hujjatlarni hamda qonun hujjatlarida belgilangan boshqa axborotni olish, bojxona nazoratidan o'tkazish maqsadida tovarlar hamda boshqa buyumlardan namuna va nusxalar olish, bojxona nazoratidan o'tkazilishi lozim bo'lgan tovarlar saqlanayotgan hududlarga va binolarga belgilangan tartibda kirish, bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilishiga doir materiallarni belgilangan tartibda ko'rib chiqish hamda jismoniy va yuridik shaxslarni qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortish, bojxonaga oid huquqbuzarliklarning bevosita predmeti bo'lgan tovarlar va transport vositalarini qonun hujjatlarida belgilangan hollarda va tartibda ushlab turish hamda olib qo'yish, surishtiruv o'tkazish va tezkor—qidiruv faoliyatini amalga oshirish, bojxonaga oid huquqbuzarliklarni aniqlashga xizmat qiladigan texnikaviy va maxsus vositalarni qo'llash.

Bojxona organlari majburiyatlari, bojxona organlari:

- yagona davlat bojxona siyosatini ro'yobga chiqarishda ishtirok etishga;
- bojxona haqidagi qonun hujjatlariga rioya etishni, bojlar to'g'ri hisoblanishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishini nazorat qilishga;

- davlat xavfsizligini, jamoat tartibini saqlash, fuqarolarning hayoti va sog'ligini himoya qilish, atrof – muhitni muhofaza etish chora – tadbirlar amalga oshirilishiga ko'maklashishga;
- yuridik va jismoniy shaxslarni tovarlar va transport vositalarini olib o'tish hamda bojxona chegarasidan o'tish vaqtidagi huquqlari va majburiyatlari to'g'risida u vaqtida xabardor qilishga;
- o'z xizmat vazifalarini bajarilishi natijasida o'zlariga ma'lum bo'lib qolgan davlat siri va tijorat siri hisoblangan axborotni oshkor etmaslikka majburdirlar.

Bojxona organlari xodimlari quyidagi tarkib asosida faoliyat olib borishadi:

Kichik boshqaruvchi tarkib:

- Bojxona xizmati starshinasi

O'rta boshqaruvchi tarkib:

- Bojxona xizmati kichik leytenanti
- Bojxona xizmati leytenanti
- Bojxona xizmati kapitani

Yuqori boshqaruvchi tarkib:

- Bojxona xizmati mayori
- Bojxona xizmati podpolkovnigi
- Bojxona xizmati polkovnigi

Oliy boshqaruvchi tarkib:

- Bojxona xizmati general – leytenanti
- Bojxona xizmati general – mayori
- Bojxona xizmati general – polkovnigi


Ushbu tarkiblar lavozimi bo'yicha ish ko'rish Vazirlar Mahkamasining respublika bojxona organlaridagi bojxona xizmati qarori asosida amalga oshiriladi. Ushbu qaror asosida shuningdek lavozimga ko'tarilishi va xizmat muddatlari belgilab o'tilgan.

Bojxona xizmati polkovnigi unvonigacha respublika Davlat Bojxona qo'mitasi raisi taqdim etsa, general – leytenantdan boshlab esa unvonlarni respublika Prezidenti taqdim etadi Ushbu xodimlar maxsus kiyim bosh va guvohnomalar bilan ta'minlanadi.

2.2 Bojxona qo'mitasining tashkiliy menejmenti

Davlat bojxona qo'mitasi markaziy apparatining tashkiliy menejmenti (2.1 – rasm) murakkab harbiylashtirilgan tuzilishga ega. U o'z ishini kollegiyalilik asosida olib boradi, Kollegiyani 9 ta a'zosi bo'lib, unga qo'mita raisi rahbarlik qiladi. Tarkibga rais o'rinbosarlari, boshqarma rahbarlari kabilar a'zo bo'lib, u Vazirlar Mahkamasi tomonidan DBQ raisi tavsiyasi bo'yicha tasdiqlanadi. Kollegiya qo'mita faoliyatiga tegishli juda muhim savollarni muntazam ravishda muhokama qiladi va qaror qabul qiladi. Qabul qilingan qarorlar tegishli tuzilma va shaxslar tomonidan bajarilishi majburiydir.

Davlat bojxona qo'mitasi markaziy apparatining tashkiliy menejmenti:




2.1 – rasm.

Hududiy boshqarma apparati va maxsuslashtirilgan bojxona majmuasi tashkiliy menejmenti (2.2 – rasm) bojxona tuzilmasining oraliq iyerarxik zvenosi hisoblanadi. Ushbu menejment tuzilmasi hududlarda, ya'ni Qaraqolpog'iston respublikasi, viloyatlar va poytaxt shahrida tashkil qilingan. U sohaga tegishli huquqiy – me'yoriy


hujjatlar talablari, raisning va kollegiya ko'rsatma va qarorlarini so'zsiz bajarilishini ta'minlaydi. Hududiy boshqarma o'z navbatida bojxona majmuasi (posti)ga tegishli ko'rsatmalar beradi.

Hududiy boshqarma apparati va maxsuslashtirilgan bojxona majmuasi tashkiliy menejmenti:



2.2 – rasm.

Bojxona majmuasi (posti)ning tashkiliy menejmenti:



2.3 – rasm.

Bojxona majmuasi (posti)ning tashkiliy menejmenti (2.3 – rasm) yuqori turuvchi iyerarxik zvenolarning barcha qo'rsatmalarni bajarib asosiy faoliyatini sohaga tegishli huquqiy – me'yoriy huddatlar talablari qurib to'g'ridan to'g'ri jismoniy va huquqiy shaxslar bilan ishlaydi. Postlarning asosiy qismi davlat chegarasida joylashgan hamda aeroport va temir yo'l vokzallarida ham tashkil qilinadi.

2.3 Davlat bojxona organlari komplektasiyasi

Bojxona organlarning huquqiy asosining asosiy elementi bo'lib, uning kompetensiyasi hisoblanadi (lotincha, competentia – kirish, qobiliyat, huquqiy tegishlilik). Ushbu so'z, ikki xil ma'noni anglatadi: savollar to'plami, ya'ni bunda belgilangan shaxs o'z aqliy qobiliyati va

ikkinchisi huquq va majburiyatlar. Davlat bojxona organlarining huquq va majburiyatlari qonun bilan ifodalanadi.

Davlat bojxona organlari yuqorida sanab o'tilgan huquq va majburiyatlarga egadirlar.

Tovarning bojxona bahosi ustidan nazoratni amalga oshirishda bojxona organi quyidagi huquqlarga ega:

- deklarant e'lon qilingan tovarning bojxona qiymati to'g'ri yoki noto'g'riligi haqida qaror qabul qilish;
- basharti deklarant o'zi foydalangan ma'lumotlarining to'g'riligini tasdiqlovchi dalillarni taqdim etmasa, tovarning bojxona qiymatini aniqlashda deklarant foydalangan usulni qo'llash mumkin emasligi haqida qaror qabul qilish;
- deklarant e'lon qilingan tovarning bojxona qiymati to'g'ri aniqlanganligini tasdiqlovchi dalillarni mavjud bo'lmasa yoki deklarant taqdim etgan ma'lumotlarga noto'g'ri va (yoki) to'liq emas deb hisoblash uchun asoslar mavjud bo'lsa, o'zida bor ma'lumotlarga shu jumladan aynan bir xil bo'lgan yoki o'xshash tovarlarning baholari haqidagi axborotga asoslanib, «Boj tarifi to'g'risida»gi qonunga muvofiq tuzatishlar kiritish yo'li bilan bojxona qiymatini aniqlash usullarini birin ketin qo'llagan holda deklarasiya berilayotgan tovarning bojxona qiymatini aniqlash.

Bojxona organi deklarantining yozma so'roviga binoan, u e'lon qilgan tovarning bojxona qiymati bojxona organi tomonidan qabul qilinmaganligining sabablari ko'rsatilgan, tushuntirish xatini deklarantga taqdim etishi shart.

Bojxona organlarining mansabdor shaxslari xizmat vazifalarini bajarish vaqtida davlat hokimyatining vakillari hisoblanadilar va

ularning bojxona haqidagi qonun hujjatlariga rioya etish borasidagi talablarini barcha yuridik va jismoniy shaxslar bajarishi shart.

Bojxona organlari mansabdor shaxslarining qonuniy faoliyatiga aralashishga hech kim haqli emas. Bojxona organlari mansabdor shaxslarining qonuniy talablarini bajarmaslik, ularning o'z xizmat vazifalarini bajarishga to'sqinlik qilish, o'z xizmat vazifalarini bajarishlari munosabati bilan ularning sha'ni va qadr – qimmati.

2.4 Davlat bojxona organlarining hukumat va boshqaruv organlari shuningdek huquq tartibot organlari bilan aloqasi

Bojxona organlari o'z faoliyatini amalga oshirish davomida ko'plab davlat organlari bilan shu munosabatda va o'zaro aloqada bo'ladi. Ushbu aloqa bojxona xizmati bilan birgalikda boshqa sohalarga ham taalluqlidir. Nafaqat bojxona organlari, soliq davlat organlari ham o'z faoliyati davomida bevosita barcha davlat organlari bilan uzviy aloqada bo'ladilar. Bu esa aniq va barqaror faoliyat olib borish asosi bo'lib hisoblanadi. Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi boshqa davlat organlari bilan birgalikda tez – tez bojxona qonunchiligi va uning ijrosi bo'yicha tahlil va o'zgartirishlarni amalga oshiradilar.

Bojxona organlari o'z zimmlariga yuklatilgan vazifalarni davlat boshqaruvining boshqa organlari va davlat hokimiyati, mahalliy organlari bilan hamkorlikda bajaradilar. Mazkur organlar bojxona nazoratini amalga oshirish hamda bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilishiga qarshi kurashda bojxona organlariga ko'maklashishlari shart.

Bojxona organlari o'z zimmlariga yuklatilgan vazifalarni bajarish maqsadida boshqa organlar va tashkilotlar bilan aniqlangan

huquqbuzarliklar bo'yicha mavjud materiallar to'g'risidagi axborotni, shuningdek boshqa axborotni qonun hujjatlarida va bitimlarda belgilangan tartibda o'zaro almashadilar.

Bojxona organlari o'z vakolatlari doirasida chiqaradigan hamma uchun majburiy tusdagi hujjatlar tegishli vazirliklar, idoralar bilan kelishinishi va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilishi lozim. Bojxona organlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o'z vakolatlariga kiradigan ayrim harakatlarning boshqa organlar va tashkilotlar tomonidan bajarilishiga yo'l qo'yadilar.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash maqsadida banklar va boshqa moliya — kredit tashkilotlari:

- xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan byudjet oldidagi majburiyatlarning bojxona to'lovlariga oid qismining bajarilishi to'g'risidagi bojxona organlarining xulosasiga binoan ana shu sub'ektlarning hisob—kitob va boshqa hisob varaqalarini yopishlari mumkin;
- belgilangan muddatlarda to'lanmagan bojxona to'lovlari va jarima summalarini xo'jalik sub'ektlaridan so'zsiz tartibda undirib olish to'g'risidagi bojxona organlarining farmoyishlarini (inkassa topshiriqlarni) bajaradilar;
- xo'jalik sub'ektlarining so'mdagi mablag'lari yetishmasa va valyuta hisob varaqalarida mablag'lari mavjud bo'lsa, bojxona organlarining taqdimnomasiga binoan mazkur valyuta mablag'larini valyuta birjasida sotish kunidagi kurs bo'yicha byudjet oldidagi qarzni qoplash uchun zarur hajmlarda so'zsiz sotishni amalga oshiradilar.

2.5 Yagona avtomatlashgan axborot tizimining (YaAAT)

maqsadlari va vazifalari

Ilmiy texnika jarayonlarini jadallashtirishning muhim omillaridan biri boshqaruvni uning barcha bo'g'inlarida boshqarish shakli va usullarini takomillashtirishdan iboratdir.

Hisoblash texnikasining zamonaviy vositalarini foydalanish asosida iqtisodiy – matematik usullarini qo'llash va aloqa vositalaridan foydalanish boshqarish tizimini bundan buyon takomillashtirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Iqtisodiy – matematik usullar va hisoblash texnikasi vositalaridan foydalanishning muhim yo'nalishlaridan biri boshqaruvning avtomatlashgan tizimini barpo etish bo'ladi.

Respublika Davlat bojxona qo'mitasining yagona avtomatlashgan axborot tizimi, bojxona faoliyatlari jarayonlarini boshqarishning avtomatlashgan tizimidan iboratdir.

Respublika bojxona xizmatining YaAAT ning asosiy vazifasi davlatning yagona bojxona siyosatini va bojxona organlarini boshqarishning amalga oshirish hamda uning samaradorligini shakllantirish hisoblanadi.

YaAAT bojxona xizmatining asosiy axborot texnologiyasini amalga oshirish vositasi deb tushuniladi.

YaAAT ning rivojlanishi, bu soha bo'yicha yangi axborot texnologiyalarining bosqichma – bosqich yaratilishi va joriy qilinishi sohalarining zamonaviy – texnikaviy komplekslarga asoslangan jarayonlardir.

Yuqorida bayon etilganlarga asoslanib, respublika Davlat bojxona qo'mitasining YaAAT vazifalari quyidagilardan iborat:

Respublika Davlat bojxona qo'mitasi bo'linmalari va hukumat organlarini bojxona statistikasini yuritish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar bilan taaminlash:

- bojxona organlarini boshqarishning barcha bo'g'inlarida tashkiliy – iqtisodiy tizimni takomillashtirish;
- tovarlarning hujjatlarini rasmiylashtiriluvini avtomatlashtirish;
- chegaradan o'tayotgan yo'lovchilarning yuklarini bojxona nazoratidan o'tkazishning samaradorligini oshirish;
- bojxona to'lovlarini hisoblashni nazorat qilish va markazlashgan holda, ularni undirib olishni ta'minlash;
- kontrabanda va bojxona qoidalarini buzishga qarshi kurash ishlarini ma'lumotlar bilan qo'llab – quvvatlash;
- notarif ravishda tartibga solish, ruxsatnomalar va cheklashlarni nazorat qilish usullari va vositalarini takomillashtirish;
- tashqi iqtisodiy faoliyatning bojxona bank nazoratida valyuta nazoratida amalga oshirish maqsadida va boshqalarda axborot texnologiyasini yaratish.

Respublika bojxona xizmatining YaAATiga asosan respublikaning mustaqillikka erishganidan so'ng rivojlanib, bojxona axborot texnologiyasining barcha bosqichlarida bojxona postidan Davlat bojxona qo'mitasining markaziy apparatigacha bo'lgan rivojlanishning ajoyib vositasiga aylanadi.

DBQ yagona avtomatlashgan axborot tizimining keyingi rivojlanish va takomillashish asoslaridan biri, respublika bojxona siyosatini ketma – ket va bosqichma – bosqich ahamiyatini oshirishning kompleks dasturi hisoblanadi.

YaAAT o'xshash tizimlar barcha rivojlangan mamlakatlarning barcha bojxona xizmatlarida mavjuddir.

Masalan, AQSh, Angliya, Fransiya, Germaniya kabi mamlakatlarida bunday tizimlar bojxona qoidalariga moslashtirish asosida 20 yildan ortiq vaqt ichida yaratilib foydalaniloqda.

YaAATning bosqichma – bosqich dasturini amalga oshirish bo'yicha ishlarni tashkil qilish uchun DBQ qoshida Bosh ilmiy – axborot hisoblash markazi (BIAHM) tashkil qilinib, YaAATni yaratishni joriy qilish va foydalanishni tashkil qilish yuzasidan ilmiy ishlab chiqarish tashkiloti hisoblanadi.

Respublikai bojxona organlarining murakkab, ko'p bosqichli tizimlar tarkibini va ularning ko'p qirrali xizmatlari va vazifalarini hisobga olib, bojxona xizmatining YaAAT yaratishda RDBQ va uning asosiy tarkibiy bo'linmalari (boshqarishning I – bosqichi), ixtisoslashtirilgan va hududiy bojxona boshqarmalari (boshqarishning II – bosqichi), bojxona (boshqaruvining III – bosqichi), chegara oldi va ichki bojxona postlari (boshqarishning IV – bosqichi) tashkil topdi.

Bularning hammasi YaAATning bojxona organlari tizimi va ularga xizmat ko'rsatish bo'linmalarining murakkab tarkibini belgilaydi.

Tarkib topgan YaAAT xususiyatlaridan biri shuki, ular turli xildagi hujjatlar aylanishi ob'ektlarini axborot bilan ta'minlashga mo'ljallangan.

Respublika bojxona organlarida hujjatlar aylanishi va boshlang'ich axborotlarning asosiy hajmini bojxona yuk bayonotlari (BYuB) tashkil qiladi. Bojxona yuk bayonotlarining mamlakat bojxonalariga tushishi turlicha bo'lib, har oyda 7–8, ayrim davrlarda 20–30 mingtani tashkil etadi.

Har oydagi bojxona yuk bayonotlarining o'rtacha oylik ko'rsatkichlariga nisbatan ortib borishi ham turli bojxonalarda turlicha bo'lib, ular o'rtacha 60 – 350 foizni tashkil etadi.

YaAAT asosiy maqsadlari. YaAAT tuzishning asosiy maqsadi amaldagilarni takomillashtirish, shuningdek yangi avtomatlashgan bojxona axborot texnologiyalarni yaratish va rivojlantirish, zamonaviy dastur texnika vositalariga asoslangan tuzilishni yaratishdir.

Respublika DBQning YaAAT birinchi navbatda axborot texnologiyasining asosiy vositalarini amalga oshiradi, bunda bojxona organlarining barcha darajadagi vazifalarini ta'minlaydi (bojxona postlari va bojxona rasmiylashtiruvidan tortib DBQ markaziy apparatiga qadar).

Kompyuter texnikasini joriy qilish va birinchi navbatda YaAAT dasturi bilan ta'minlashda, avvalo, DBQ markaziy apparatidagi vujudga kelgan muammolarni hal etish uchun amalga oshiriladi.

Avtomatlashtirish yuqoridan pastga qarab joriy qilinadi.

Natijada respublika bojxona organlarida baquvvat texnika imkoniyatlari vujudga kelib, ular kompleks avtomatlashtirish vazifalarini yechishga kirishish, alohida ish joylarini avtomatlashtirishdan muvofiqlashtirish tizimlariga va bojxona axborot texnologiyalarini avtomatlashtirishga kirishish imkoniyatlarini yaratadi.

YaAATning ikkinchi navbati amaldagi avtomatlashgan tizimning yangi dasturiy – texnikaviy va texnologiya harakat dasturining mantiqiy rivojlanishidir.

Yangi dasturiy – texnikaviy harakat dasturi deyilganda, hisoblash texnikasining zamonaviy kuchli vositalari va telekommunikasiyalari bilan birgalikda, taraqqiy umumtizimli dasturiy vositalar tushuniladi, ya'ni Windows, Unix jarayonlar tizimi, Windows,

Nouell tarmoq jarayonlar tizimlari, ORASLE CASE to'plamiga kiruvchi tizimni loyihalash.

Yangi dasturiy texnikaviy harakat dasturini qo'llash:

- avtomatlashtirilgan vazifalarni kengaytirish imkoniyatlarini yaratadi;
- tizimning faollik ko'rsatish yuzasidan ishonchini oshiradi;
- axborotlarni ruxsat etilmagan shaxslar tomonidan foydalanishdan himoya qilishda samarali qismlarini joriy qilish imkoniyatlarini yaratadi.

Shu boisdan YaAAT tizimining ikkinchi navbatini yaratilayotishdagi asosiy vazifalardan biri, mavjud tizimlarning vorisligi, birgalikda ishlatilayotgan va yangidan yaratiladigan, yoki takomillashtiriladigan (ikkinchi navbat doirasida) amaliy va umumtizim dasturiy vositalarini ta'minlashdan iborat.

Bojxona qo'mitasi YaAAT ning yuqorida bayon etilgan tizimini yaratish va rivojlantirish maqsadlariga erishish quyidagilar hisobiga ta'minlanadi:

- YaAAT apparat—dasturiy harakat dasturini rivojlanishi va takomillashuvining zamonaviy kompyuter va telekommunikasiya va axborot texnologiyasi asoslaridagi darajalariga erishish;
- bojxona hujjatlarining qisman qog'ozsiz texnologiyalaridan foydalanishga o'tish va elektron hujjatlarni joriy etish;
- elektron pochtalardan foydalanish asosida bojxona organlarida yagona axborot makonini yaratish, bojxona organlari o'rtasida tezkor hamkorlikni ta'minlash, shuningdek bojxona organlari va boshqa tashkilotlar bilan aloqani mustahkamlash;

- bojxona jarayonlari, texnologiyalari, normativ asoslarni va hujjatlarni shakllar va standartlarga keltirish;
- bojxona baholash holatlari va tovarlarning yangi xillarini yaratishda ob`ektiv o'lchovlarni ishlab chiqish va joriy qilish;
- tovarlarni tekshirib chiqish va rasmiylashtirish jarayonlarini alohida ajratilgan holda o'tkazish;
- vaqt jihatidan uzoq nazorat muddatini talab etadigan tovarlarni kuzatish va nazorat tizimini yaratish (vaqtinchalik olib kelish, olib chiqish, reeksport, barter jarayonlari, va boshqalar);
- xodimlarni eskilikka xos jarayonlar bilan band qilish darajasini kamaytirish, bojxona organlari xodimlarini tashqi iqtisodiy faoliyatning turli xildagi holatlarini chuqur va mazmunli tahlil qilishga yo'naltirish, hisob – kitob hujjatlarini tuzishda mehnat sarfini kamaytirish bilan birgalikda ularning puxtaligini oshirish
- mizojlarga uzluksiz xizmat qilishni kafolatlash, ularning bojxona organlari bilan aloqada bo'lishlarida qulayliklarni oshirish.

Ishlab chiqilayotgan YaAAT tizimining ikkinchi navbatdagi asosiy baholash me`yori bo'lib, quyidagilar hisoblanadi:

- bojxona statistikasining aniq va puxtaligini oshirish;
- Davlat byudjetiga tushadigan bojxona to'lovlarini to'liq undirish;
- bojxona nazoratining samaradorligini oshirish, bojxona rasmiylashtiruvining xarajatlarini kamaytirish;
- bojxona xizmatlari vazifalarini hal etishning tezkorligini oshirish;

- axborot – qidiruv, hisob – kitob va tashkiliy ishlarga bo'ladigan vaqtinchalik va moliyaviy xarajatlarni kamaytirish;
- bojxona organlarining moliyaviy jarayonlar bo'yicha ikki tomonlama hisobotni yuritish (ustumalarni hisoblash va bojxona to'lovlarini hisoblash nazorat qilish);
- tizimni himoya qilishning tegishli darajasini ta'minlash va shunga binoan ma'lumotlarning oshkora bo'lishini cheklash, tizimning axborot resurslaridan audit tekshirishlari ma'lumotlaridan foydalanish (foydalanishga urinish) ishlaridan himoya qilish;
- normativ – huquq asoslari o'zgargan paytlarda tizimning barqarorligini qisqa vaqt ichida o'rnatish;
- tizimning jiddiy sharoitlarda tarkibiy qismlarning to'liq qilish manbaolarini ta'minlash: apparat qismlari dasturiy ta'minot, kommunikasiya va ma'lumotlarning yaxlitligi.

2.6 Bojxona yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi tuzilmalari menejmenti

Bojxona siyosatini amalga oshirishning samaradorligini oshirish hamda tovarlar bojxonada rasmiylashtirilishini hisobga olishning yagona tizimini joriy etish maqsadida Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimini mavjud.


YaAATning axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ularni berishning texnologik jarayonlarini kompleks avtomatlashtirishni, barcha darajalardagi bojxona organlarining yagona ma'lumotlar bazasidan tezkor ma'lumot olishni ta'minlashga, bojxona nazorati ostidagi tovarlar bilan aniq vaqt ko'lamida sodir etilayotgan barcha

tartib – qoidalarining monitoringini olib borishga qaratilgan tashkiliy – funksional tuzilmasi 2.4 – rasmdagi sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

Tashqi foydalanuvchilar

Davlat bojxona qo'mitasi bo'linmalari

Vazifalar



2.4 – rasm. Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimining tashkiliy – funksional tuzilmasi.

3 bob. Bojxona nazoratini amalga oshirish

3.1 Bojxona nazoratining shakllari, tartibi va chegaralari

Bojxona nazorati zonalarini bojxona chegaralari bo'ylab, bojxona rasmiylashtiruvchi joylarida, bojxona organlari joylashgan yerlarda va bojxona organlari tomonidan belgilanadigan boshqa joylarda tuziladi.

Bojxona nazorat zonalarini tuzish va belgilash tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

Bojxona nazorati zonalarida ishlab chiqarish, tijorat faoliyatini va boshqa faoliyatni amalga oshirishga, shuningdek ularning chegaralari orqali transport vositalari, tovarlar va shaxslarni olib o'tishga bojxona organlarining ruxsati bilan va nazorati ostida yo'l qo'yiladi.

Tovarlar va transport vositalarini bojxona ko'rigidan o'tkazish tovarlar va transport vositalarini bojxona chegarasi orqali olib o'tishning qonuniyligini aniqlash, ularni hisobga olish, boj, soliqlar, yig'imlar olish, shuningdek olib kirish, olib chiqish va tranzit qilish taqiqlangan tovarlar bojxona chegarasi orqali o'tishning hamda bojxona hududi orqali tranzit tartibida o'tishning mansabdor shaxslar tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Tovarlar va transport vositalariga nisbatan vakolatlarga ega bo'lgan shaxslar tovarlar va transport vositalarini ko'zdan kechirish paytida hozir bo'lishiga haqlidir, bojxona organlari mansabdor shaxslarning talabiga ko'ra, esa tekshirish paytida hozir bo'lishlari va bojxona organlarining mansabdor shaxslariga zarur yordam ko'rsatishlari shart.

Tovarlar va transport vositalariga nisbatan vakolatlarga ega shaxs bo'lmagan taqdirda, transport vositalarini boshqaruvchi shaxs

bojxona maqsadlari uchun vakolatli shaxs deb hisoblanadi. Tovarlar va transport vositalariga nisbatan vakolatlarga ega bo'lgan shaxslar yo'qligida bojxona organlari quyidagi hollarda tovarlar va transport vositalarini ko'zdan kechirishga haqli:

- ular tovarlar va transport vositalarini taqdim etilganidan so'ng o'n kun o'tganidan keyin kelmagan bo'lsa;
- davlat xavfsizligi, jamoat tartibiga, inson hayoti va sog'ligiga, hayvonot va o'simliklar, atrof tabiiy muhitga, respublikaning badiiy, tarixiy va arxeologik boyliklari saqlanishiga xavf mavjud bo'lganda va kechiktirib bo'lmaydigan boshqa holatlarda;
- tovarlar va xalqaro pochta jo'natmalari orqali yuborilgan bo'lsa;
- tovarlar va transport vositalari ular joylashtirilgan bojxona rejimini buzgan holda bojxona hududida qoldirilgan bo'lsa.

Shaxsni ko'zdan kechirish bojxona orqali o'tayotgan yoxud bojxona nazorati zonasida yoki xalqaro aloqa uchun ochiq aeroportning tranzit zonasida turgan jismoniy shaxs qonun hujjatlarini buzish ob'ektlari hisoblanuvchi tovarlarni o'z yonida yashiryapti va ko'rsatmayapti deb hisoblashga asoslar bo'lgan taqdirda bojxona organi mansabdor shaxsning qaroriga binoan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o'tkaziladi.

Bojxona nazorati ostida bo'lgan hujjatlar, tovarlar transport vositalari, binolar va boshqa joylarni bojxona qiyoslashidan o'tkazish ularga plombalar, muhrlar qo'yish, raqamli, harfli, va boshqa markalar bosish qiyoslash belgilarini qo'yish, shtamplar bosish, namunalar, nusxalar olish, tovarlar va transport vositalarini ta'riflash, ularning chizmalarini tayyorlash, masshtabli tasvirlar, fotosuratlar, illyustrasiyalar tayyorlash, tovarlarga ilova qilingan va boshqa

hujjatlardan hamda o'zga qiyoslash vositalaridan foydalanish orqali ta'minlanadi.

Qiyoslash vositalari faqat bojxona organlari tomonidan yoki ularning ruxsati bilan o'zlashtirishi, olib tashlanishi yoki yo'q qilinishi mumkin, tovarlar va transport vositalarining yo'q bo'lib ketishi, ularga qayta tiklab bo'lmaydigan darajada putur etkazishi yoki ularning jiddiy buzilishi xavfi tug'ilgan hollar bundan mustasno, qiyoslash vositalari o'zgartirilganligi, olib tashlanganligi yoki yo'q qilinganligi to'g'risida bojxona organlariga darhol ma'lum qilinadi va bunday xavf mavjud bo'lganligini isbotlovchi dalillar taqdim etiladi.

Bojxona organlar bojxona nazorati ostida turgan tovarlar va transport vositalarini, shuningdek boj to'lovlari to'lanmagan yoki boj to'lovlari yuzasidan bojxona imtiyozlari berilgan inventarizasiyadan o'tkazishga haqlidir.

Bojxona organlari qonun hujjatlariga muvofiq shaxslarning nazorat qilish bojxona organlari zimmasiga yuklatilgan faoliyatni tekshirishga haqlidir.

Bojxona organlari bojxona nazoratini o'tkazishda, qoida tariqasida, nazoratning qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash uchun yetarli bo'lgan shakllarni qo'llaydilar.

Zarurat bo'lganda bojxona organlari, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, bojxona nazoratining ushbu Bojxona Kodeksida belgilangan barcha shakllaridan foydalanishlari mumkin.

Bojxona nazoratining muayyan maqsadlaridan ozod qilish respublikaning qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalarga muvofiq amalga oshiriladi.

Respublika Qonunchilik hokimiyati deputatlari va respublikasi Vazirlar Mahkamasi a'zolarining shaxsiy bagaji, agar mazkur shaxslar

xizmat vazifalarini bajarish bilan bog'liq holda respublika bojxona chegarasidan o'tayotgan bo'lsalar, bojxona tekshiruvidan ozod qilinadi.

Chet el harbiy kemalari, jangovor va harbiy — transport havo kemalari, shuningdek o'zi yurib kelayotgan harbiy texnikasi bojxona tekshiruvidan ozod qilinadi.

Tovarlar va transport vositalari chiqishiga ruxsat berilganidan keyin, agar qonun hujjatlari buzilgan deb taxmin qilish uchun asoslar mavjud bo'lsa, tovarlar va transport vositalari bojxona nazoratidan o'tkazilishi mumkin.

Ko'rsatib o'tilgan hollarda bojxona organlari tovarlar va transport vositalarini mavjudligini tekshirishga ularni takroran bojxona tekshiruvidan o'tkazishga, bojxona deklarasiyasida ko'rsatilgan ma'lumotlarni qayta tekshirishga, ushbu tovarlar bilan amalga oshiriladigan tashqi iqtisodiy va keyingi tijorat operatsiyalarga daxldor hujjatlar va boshqa ma'lumotlarni tekshirishga haqlidir. Tekshirish deklarant turgan joyda, ko'rsatib o'tilgan operatsiyalarga bevosita yoki bilvosita aloqasi bo'lgan yoki zarur hujjatlarga ega bo'lgan har qanday boshqa shaxs turgan joylarda o'tkazilishi mumkin. Huquqbuzarlik aniqlangan taqdirda shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

Bojxona organlarining mansabdor shaxslari xizmat guvohnomasi asosida bojxona nazoratidan o'tkazilishi kerak bo'lgan tovarlar va transport vositalarini bojxona nazorati uchun zarur bo'lgan hujjatlar mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan yoxud nazorat qilish bojxona organlari zimmasiga yuklatilgan faoliyat amalga oshirilayotgan hudud va binolarga kira olish huquqiga ega, respublika qonun hujjatlarida yoki xalqaro shartnomalarda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Bojxona organlari bojxona nazoratini o'tkazishda yordam ko'rsatish uchun qonun hujjatlariga muvofiq mutaxassislar va ekspertlarni jalb etishga haqli.

Bojxona nazorati bojxona organlarining mansabdor shaxslari tomonidan quyidagi yo'llar bilan o'tkaziladi:

- bojxona maqsadlari uchun zarur bo'lgan hujjatlar va ma'lumotlarni tekshirish;
- jismoniy va mansabdor shaxslarni og'zaki so'rab – surishtirish;
- bojxona ko'rigidan o'tkazish;
- tovarlar, transport vositalari, binolar va boshqa joylarni bojxona tomonidan qiyoslash;
- tovarlar va transport vositalarini hisobga olish;
- hisobga olish va hisobot tizimini tekshirish;
- bojxona nazoratidan o'tkazilishi lozim bo'lgan tovarlar va transport vositalari turishi mumkin bo'lgan yoxud nazorat qilish bojxona organlari zimmasiga yuklatilgan faoliyat amalga oshirilayotgan hududlar, binolar va boshqa joylarni tekshirish;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa shakllarda.

Bojxona nazorati o'tkazilayotganda inson, hayvonot va o'simliklar hayoti va sog'ligi uchun xavfsiz bo'lgan, hamda tovarlar va transport vositalariga ziyon etkazmaydigan texnikaviy va boshqa vositalar qo'llanilishi mumkin.

3.2 Bojxona nazorati ostida tovarlar va transport vositalarini olib o'tishdagi asosiy talablar

Respublikaning bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan hamda shartli chiqarib yuborilgan tovarlar va transport vositalar bojxona nazoratidan o'tkazilishi lozim, respublika bojxona kodeksining tegishli moddalarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Bojxona organlari erkin bojxona zonalari va erkin omborlarda turgan tovarlar ustidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda bojxona nazoratini amalga oshirishga haqlidir.

Bojxona organlari bojxona hududidan bojxona organining ruxsatisiz chiqib ketgan transport vositalarini majburiy ravishda to'xtatish, dengiz, daryo va havo kemalarini majburiy ravishda orqaga qaytarishga haqlidir, chet el kemalari va boshqa davlatlarning hududida turgan kemalar bundan mustasno.

Tranzit shunday rejimki, bunda tovarlar respublikaning ikki bojxona organi o'rtasida, shu jumladan chet davlat hududi orqali boj, soliqlar undirilmasdan, shuningdek tovarlarga nisbatan iqtisodiy siyosat choralarini qo'llamasdan bojxona nazorati ostida olib o'tiladi.

Tovarlarni tranzit rejimida respublika hududi orqali olib o'tish bojxona organining ruxsati bilan istalgan yo'llar va yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi, respublika qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Bojxona nazorati:

- bojxona hududiga olib kirishda tovarlar va transport vositalari bojxona chegarasini kesib o'tgan paytdan e'tiboran;

- bojxona hududidan tovarlar va transport vositalarini olib chiqishda bojxona deklarasiyasi qabul qilib olingan paytdan e'tiboran boshlanadi.

Bojxona nazorati, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, tovarlar va transport vositalari saqlangan bojxona rejimiga muvofiq chiqishga ruxsat berilgan paytdan e'tiboran tugallanadi.

3.3 Respublika bojxona chegarasidan tovarlar va transport vositalarini olib o'tishning huquqiy asoslari

Respublika bojxona chegarasi orqali tovarlar va transport vositalarini olib o'tuvchi yoki nazorat qilish bojxona organlari zimmasiga yuklatilgan faoliyatni amalga oshiruvchi shaxslar bu organlarga ro'yxati va taqdim etish tartibi qonun hujjatlarida belgilanadigan hujjatlarni va ma'lumotlarni topshiradilar.

Bojxona nazoratini amalga oshirish uchun bojxona organlari banklardan, boshqa moliya kredit muassasalaridan va xo'jalik yurituvchi sub'ektlardan eksport – import operatsiyalari hamda nazorat qilish bojxona organlari zimmasiga yuklatilgan faoliyatning boshqa turlariga doir ma'lumotlarni oshirishga haqlidir.

Bojxona nazorati uchun zarur bo'lgan hujjatlar shaxslar tomonidan kamida uch yil saqlanishi lozim.

Tovarlar va transport vositalari chiqishga ruxsat berilganidan keyin, agar qonun hujjatlari buzilgan deb taxmin qilish uchun asoslar mavjud bo'lsa, tovarlar va transport vositalari bojxona nazoratidan o'tkazilishi mumkin. Ko'rsatib o'tilgan hollarda bojxona organlari tovarlar va transport vositalari mavjudligini tekshinishga, ularni takroran bojxona tekshiruvidan o'tkazishga, bojxona deklarasiyasida

ko'rsatilgan ma'lumotlarni qayta tekshirishga, ushbu tovarlar bilan amalga oshiriladigan tashqi iqtisodiy va keyingi tijorat operatsiyalariga dahldor hujjatlar va boshqa ma'lumotlarni tekshirishga haqlidir. Tekshirish deklarant turgan joyda, ko'rsatib o'tilgan operatsiyalarga bevosita yoki bilvosita aloqasi bo'lgan yoki zarur hujjatlarga ega bo'lgan har qanday boshqa shaxs turgan joylarda o'tkazilishi mumkin. Huquqbuzarlik aniqlangan taqdirda shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

Bojxona rejimi — respublika bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlar va transport vositalari maqomini belgilaydigan qoidalar majmui.

3.4 Xorij mashinalarini import jarayonida boj stavkalarining nazariy hisobi

Xorijiy valyutaga sotib olingan import qilinayotgan avtomobilning xarid qiymati buxgalteriya hisobi, statistik va boshqa hisobotlarda xorijiy valyutadagi operatsiyalarni aks ettirish tartibi asosida ushbu formula bo'yicha topiladi

$$Q = ShQ + B + Bx ,$$

bu erda:

Q — import qilinayotgan avtotransport vositalarining xarid qiymati;

ShQ — ularning bojxona yuk deklarasiyasini tuldirish sanasidagi Markaziy bank kursidan kelib chiqqan holda aniqlangan shartnomaviy qiymati;

B — bojxona to'lovlari. O'z ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan transport vositalari hisobda importga QQS summasini hisobga olgan holda xarid qiymati bo'yicha aks ettiriladi;

Bx — xarid bilan bog'liq boshqa xarajatlar.

Bojxona to'lovlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- bojxona boji;
- bojxona yig'implari (bojxonada rasmiylashtirish uchun; saqlash uchun; bojxona kuzatuv uchun);
- oldindan hal etish uchun to'lov.

Avalo boj stavkalari (tovarning bojxona qiymatiga nisbatan % larda qo'llaniladigan, olib kiriladigan tovarlarga) bojxona bojlari quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi

$$B = K_b \times S,$$

bunda: **B** — olib kirishdagi bojxona boji miqdori;

K_b — tovarning bojxona qiymati;

S — tovarning bojxona qiymatiga nisbatan foizlarda belgilangan olib kirishdagi bojxona boji stavkasi.

Maxsus stavkalar bo'yicha soliq solinadigan tovarlarga nisbatan bojxona boji quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$B = V_t \times S,$$

bunda: **B** — olib kirishdagi bojxona summasi;

V_t — tovarlar soni;

S — tovarning bir birligi uchun olib kirishdagi bojxona boji stavkasi.

Import qilinayotgan transport vositalari bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini ushbu formula buyicha hisoblash lozim:

$$S_{qqs} = (Q_b + P_{ip} + A_s) \times N/100,$$

bunda:

S_{qqs} — qo'shilgan qiymat solig'i summasi;

K_b — import qilinayotgan avtomobilning bojxona qiymati;

P_{ip} — bojxona boji summasi;

A_s — aksizlanadigan tovarlarga aksiz solig'i summasi;

N — foizlardagi qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi.

4 bob. Bojxona rejimlari

4.1 Reeksport, reimport va tovarlar tranziti

Tovarlar va transport vositalarini bojxona chegarasi orqali olib o'tish ularning bojxona rejimlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Quyidagi turdagi bojxona rejimlari belgilanadi:

- Erkin muomalaga chiqarish (import)
- Reimport
- Eksport
- Reeksport
- Tranzit
- Vaqtincha olib kirish(olib chiqish)
- Vaqtincha saqlash
- Bojxona ombori
- Erkin bojxona zonasi
- Erkin ombor
- Boj olinmaydigan savdo do'koni
- Bojxona hududida qayta ishlash
- Bojxona nazorati ostida qayta ishlash
- Bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash
- Yo'q qilish
- Davlat foydasiga voz kechish

Shaxs, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lsa, tovarlar va transport vositalarining xususiyati, miqdori, qaysi mamlakatda ishlab chiqarilgani yoki qaysi maqsadga mo'ljallanganligidan qat'iy nazar, istalgan rejimini tanlashga yoki uni boshqasiga o'zgartirishga haqli.

Reimport rejimi. Reimport shunday rejimki, bunda eksport rejimida bojxona hududidan olib chiqilgan respublika tovarlari import bo'larini, soliqlarni to'lamasdan, shuningdek ularga nisbatan iqtisodiy siyosat choralari qo'llanilmagan holda ushbu moddaning ikkinchi qismida belgilangan muddatda qaytib olib kiriladi.

Olib chiqilgan paytdan boshlab o'n yil ichida bojxona hududiga qaytarib olib kirilgan tabiiy eskirish yoxud normal tashish va saqlash sharoitlarida kamayish oqibatidagi o'zgarishlar hamda qonun hujjatlarida belgilanadigan boshqa hollarni istisno etganda olib chiqilgan paytda qanday bo'lsa shunday holatda turgan tovarlar reimport rejimiga joylashtiriladi.

Tovarlarni eksport rejimida olib chiqilayotganda to'langan eksport boji va soliqlar summasi, bu tovarlar olib chiqilgan paytdan boshlabuch yil ichida reimport rejimida qaytarib olib kirilgan taqdirda bojxona organining taqdimnomasi bo'yicha qonun hujjatlarida belgilanadigan tartibda qaytariladi.

Tranzit rejimi. Tranzit shunday rejimki, bunda tovarlar respublikaning ikki bojxona organi o'rtasida, shu jumladan chet davlat hududi orqali boj, soliqlar undirilmasdan, shuningdek tovarlarga nisbatan iqtisodiy siyosat choralarni qo'llanmasdan bojxona nazorati ostida olib o'tiladi. Tovarlarni tranzit rejimida respublikasi hududi orqali olib o'tish bojxona organining ruxsati bilan istalgan yo'llar va yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi. Respublika qonun hujjatlarida va xalqaro shartnomalarda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Agar tovarlarni amalda chetga olib chiqish vaqtida to'lovlardan ozod qilish yoki to'langan summani qaytarish nazarda tutilgan bo'lsa, bojxona ombori rejimiga joylashtirilgan va eksport rejimiga ko'ra olib chiqishga mo'ljallangan tovarlar bojdand, soliqlardan ozod qilinadi

yoxud to'langan summalar qaytariladi. Bu tovarlar bojxona ombori rejimiga joylashtirilgan kundan boshlab uch oydan kechikmay olib chiqilishi lozim.

4.2 Vaqtincha saqlash va davlat foydasiga voz kechish

Vaqtincha saqlash shunday rejimki, bunda olib kirilgan tovarlar va transport vositalari bojxona organiga taqdim etilgan paytdan boshlab chiqarishga ruxsat berilgunga qadar tanlangan rejimiga muvofiq bojxona omborida boj, soliqlar va iqtisodiy siyosat choralari qo'llanilmasdan vaqtincha saqlanadi.

Bojxona tartibotiga muvofiq vaqtincha saqlash rejimiga boshqa tovarlar va transport vositalari ham joylashtirilishi mumkin.

Tovarlar va transport vositalarini vaqtincha saqlash rejimiga joylashtirilishda qisqa deklarasiya qo'llaniladi.

Tovarlarni vaqtincha saqlash rejimida turish muddati ikki oydan oshmasligi lozim, ayrim holatlar bundan mustasno. Vaqtincha saqlash rejimiga joylashtirilgan tovarlar bilan qilinadigan operatsiyalar ro'yxati va ularni amalga oshirish tartibi tartibotda belgilanadi.

Davlat foydasiga voz kechish rejimi shunday rejimki, bunda shaxs tovarlarga nisbatan boj, soliqlar va iqtisodiy siyosat choralari qo'llanilmagan holda ulardan davlat foydasiga voz kechadi.

Tovarlarni davlat foydasiga voz kechish rejimiga joylashtirishga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda bojxona organining ruxsati bilan yo'l qo'yiladi.

Tovarlardan davlat foydasiga voz kechish davlatning xarajatlar qilishiga sabab bo'lmaydi.

4.3 Respublika bojxona chegarasidan tovarlar va transport vositalari shuningdek ayrim turdagi tovarlarni olib o'tishni taqiqlash, cheklash tartibi

Davlat xavfsizligini ta'minlash, jamoat tirtibini saqlash, ma'naviyat, inson hayoti va salomatligini saqlash, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, respublika hamda boshqa mamlakatlar xalqlarining badiiy, tarixiy va arxeologik boyliklarni, mulk huquqini shu jumladan intellektual mulk ob'ektlariga bo'lgan huquqni olib kirilayotgan tovarlarni iste'mol qiluvchilarning manfaatlarini himoya qilish, shuningdek respublikaning boshqa manfaatlaridan kelib chiqqan holda respublikaning qonun hujjatlari hamda xalqaro shartnomalarga muvofiq ayrim tovarlar va transport vositalarini respublikaga olib kirish va respublikadan olib chiqish taqiqlanishi mumkin.

Bojxona chegarasi orqali olib o'tish taqiqlangan tovarlar va transport vositalari, agar respublikaning qonun hujjatlarida yoki xalqaro shartnomalarida bu tovarlar va transport vositalarini musodara qilish nazarda tutilmagan bo'lsa, darhol respublikadan tashqariga olib chiqib ketishi yoxud respublika hududiga qaytarilishi shart.

Tovarlar va transport vositalarini olib chiqib ketishni yoki qaytarishni olib o'tayotgan shaxs yoki tashuvchi o'z hisobidan amalga oshiradi. Tovarlar va transport vositalari darhol olib chiqib ketilmagan yoki qaytarilmagan taqdirda ular bojxona organiga qarashli bo'lgan omborga vaqtincha saqlash rejimi ostida joylashtiriladi. Saqlash muddati uch surunka bo'ladi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Tovarlar va transport vositalarini bojxona chegarasidan olib o'tishdagi cheklovlar xalqaro majburiyatlardan, ichki bozorni himoya qilish zarurligidan kelib chiqqan holda, shuningdek chet davlatlar va

ittifoqlarning huquqini kamsituvchi yoki respublikaning manfaatlarini kamsituvchi boshqa harakatlariga javob chorasi tariqasida qonun hujjatlariga muvofiq belgilanishi mumkin.

Ko'rsatib o'tilgan cheklovlar joriy etilishi munosabati bilan tovarlarni olib o'tayotgan shaxs yoki tashuvchi qiladigan harajatlar bojxona organlari tomonidan to'lanmaydi.

Respublikaning bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan, shu jumladan tovar sifatida olib o'tiladigan transport vositalari bojxona organlari belgilaydigan joylarda to'xtatiladi. Bu talab bajarilmagan taqdirda, bojxona organlari transport vositalarini qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda majburlab to'xtatilishiga haqli.

Transport vositalarini to'xtatib turish muddati va joyi bojxona organlari tomonidan tashuvchi bilan birgalikda aniqlanadi. Transport vositalarini to'xtatib turish muddati bojxona nazorati va bojxona rasmiylashtiruvni manfaatlariga zid tarzda qisqartirilishi mumkin emas.

Transport vositalarini to'xtatib turish joylaridan jo'natib yuborish bojxona organining ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Transport vositalarining respublika bojxona chegarasidan o'tish joyi va vaqti tashuvchi tomonidan tegishli bojxona organi bilan kelishib olinadi.

Bojxona ombori shunday rejimki, bunda olib kirilgan tovarlar saqlash davrida import boji, soliqlar va iqtisodiy siyosat choralari qo'llanilmasdan bojxona nazorati ostida saqlanadi, eksport rejimida olib chiqishga mo'ljallangan tovarlar esa Bojxona Kodeksining tegishli nazarda tutilgan imtiyozlar berilgan holda saqlanadi.

Respublikaga olib kirish, respublikadan olib chiqish, respublika hududi orqali tranzit olib o'tish man etilgan tovarlar hamda ro'yxati qonun hujjatlari bilan belgilanadigan boshqa tovarlar bojxona rejimiga joylashtirilishi mumkin emas.

Tovarlar bojxona ombori rejimida uch yil mobaynida turishi mumkin. Ushbu muddat tovarlarning ayrim toifalari va ayrim shaxslar uchun qonun hujjatlari bilan cheklanishi mumkin, lekin u bir yildan kam bo'lmasligi kerak.

Belgilangan muddat tugagunga qadar tovarga nisbatan vakolatga ega bo'lgan shaxs tomonidan tovarni bojxona rejimiga joylashtirish so'ratishi kerak. bu talablarga rioya etilmagan taqdirda, tovar bojxona organiga qarashli bojxona omboriga vaqtincha saqlash rejimiga joylashtiriladi.

Bojxona ombori rejimiga joylashtirilgan tovarlar bilan qilinadigan operatsiyalar ro'yxati va ularni amalga oshirish tartibi Kodeksda belgilanadi.

Erkin bojxona zonasi va erkin ombor shunday rejimlarki, bunda chet el tovarlari muayyan hududlar va va joylarda boj, soliqlar va iqtisodiy siyosat choralari qo'llanilmasdan joylashtiriladi va ishlatiladi. Mamalakat tovarlari esa eksport rejimiga muvofiq olib chiqishda qo'llaniladigan shartlarga ko'ra joylashtiriladi va ishlatiladi.

Erkin bojxona zonalari va erkin omborlarda agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lsa, tovarlar bilan ishlab chiqarish va tijorat operatsiyalarini bajarishga yo'l qo'yiladi, ularni chakana savdosi bundan mustasno.

Kodeksning va boshqa qonun hujjatlarining qoidalariga rioya etmagan ayrim shaxslarga bojxona organlari tovarlar bilan operatsiyalarni amalga oshirishni taqiqlab qo'yishi hamda erkin bojxona zonalari va erkin omborlarga moneliiksiz kirib chiqishni rad etishi mumkin.

Bojxona organlari tovarlarni qayta ishlash natijasida qancha mahsulot chiqishi kerakligini bojxona maqsadlarini ko'zlab, qonun hujjatlarida ko'rsatilgan tartibda belgilab qo'yishlari mumkin.

Olib kirish chog'ida to'langan import boji va soliqlar summasini qayta ishlash mahsulotlarni eksport rejimida olib chiqish paytida qaytarish bojxona organining taqdimnomasi bo'yicha Kodeks talablariga rioya etilgan hamda qayta ishlash, mahsulotlari respublikaning bojxona chegarasi orqali olib o'tilgan kundan boshlab ikki yildan kechiktirmay olib chiqilgan taqdirda amalga oshiriladi.

Qayta ishlash mahsulotlarini mamlakatning o'z tovarlari bilan almashtirishga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda yo'l qo'yiladi.

Vaqtincha olib kirish (olib chiqish) shunday rejimki, bunda bojxona hududida yoki undan tashqarida tovarlardan bojdan, soliqlardan to'la yoki qisman ozod etilgan holda va tovarlarga nisbatan iqtisodiy siyosat choralari qo'llanilmasdan foydalanishga yo'l qo'yiladi.

Vaqtincha olib kirish (olib chiqish) rejimiga joylashtirilgan tovarlar o'zgartirmasdan joylashtirilishi lozim, tabiiy eskirish yoxud normal tashish va saqlash sharoitlarida kamayish oqibatidagi o'zgarishlar bundan mustasno.

Vaqtincha olib kirish (olib chiqish) rejimiga joylashtirilgan tovarlarni boj, soliqlar to'lashdan to'la yoki qisman ozod qilish qonun hujjatlarida belgilanadi.

Tovarlarni vaqtincha olib kirish (olib chiqish) rejimiga joylashtirilgan, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, ularni qayta olib chiqish yoki qayta olib kirish majburiyati taqdim etilgan, bojxona to'lovlari jo'natilishi ta'minlangan taqdirda bojxona organining ruxsati bilan yo'l qo'yiladi.

Vaqtincha olib kirish (olib chiqish) rejimiga joylashtirilmaydigan tovarlarning ro'yxati qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Tovarlarni vaqtincha olib kirish (olib chiqish) rejimiga joylashtirish mumkin bo'lgan muddat bojxona organlari tomonidan bunday olib kirish (olib chiqishning) maqsadlari va holatlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi va uzaytiriladi, biroq tovarlar bunday rejimda turishining umumiy muddati ikki yildan oshmasligi kerak. Tovarining ayrim toifalari uchun qonun hujjatlariga muvofiq ancha uzoqroq muddatlar belgilanishi mumkin.

Tovar belgilangan muddat tugagunga qadar unga nisbatan vakolatli bo'lgan shaxs tomonidan bojxona hududidan tashqariga olib chiqishi yoki u erga olib kirishi yoxud boshqa bojxona rejimiga joylashtirilishi lozim. Bu talablarga rioya etilmagan holda tovar bojxona organi egalik qiladigan bojxona omboriga vaqtincha saqlash rejimiga joylashtiriladi.

Agar tovarlar halokat oqibatida yoki engib bo'lmas kuch ta'sirida yo'q bo'lganligi yoki mutlaqo yo'q bo'lganligi, tabiiy eskirishi va saqlash sharoitida kamayishi tufayli etishmasligi yoxud chet davlat organlari yoki mansabdor shaxslarning respublika qonun hujjatlariga xilof hatti–harakatlari natijasida shaxsning egaligidan chiqib ketganligi respublikaning chet davlat dimlomatiya vakolatxonalari yoki konsullik, muassasalari tomonidan tasdiqlansa, tovarlarni vaqtincha olib chiqqan va ularni belgilangan muddatda qaytarib olib kirilmagan shaxs bojxona organlari oldida javobgar bo'lmaydi.

Boj olinmaydigan savdo do'koni shunday rejimki, bunda tovarlar bojxona hududining bojxona organlari Kodeksiga muvofiq belgilaydigan joylardan boj, soliqlar va iqtisodiy siyosat choralari qo'llanilmasdan bojxona nazorati ostida turadi hamda realizasiya qilinadi.

Boj olinmaydigan savdo do'koni rejimiga bojxona hududiga olib kirishi hamda undan olib chiqishi va respublika hududida realizasiya qilish taqiqlangan tovarlar joylashtirilishi mumkin emas.

Respublika hududida realizasiya qilinishi cheklangan tovarlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda boj olinmaydigan savdo do'koni rejimida realizasiya qilinishi mumkin.

Boj olinmaydigan savdo do'koni rejimiga joylashtirilgan tovarlar boj olinmaydigan maxsus savdo do'konlarida realizasiya qilinadi.

5 bob Bojxona to'lovlari

5.1 Bojxona to'lovlarining turlari

Tovarlar va transport vositalari bojxona chegarasi orqali olib o'tishda quyidagi bojxona to'lovlari to'lanadi:

- bojxona boji;
- qo'shilgan qiymat solig'I;
- aksiz solig'I;
- lisenziya berganlik uchun yig'im;
- bojxona rasmiylashtiruvi bo'ymcha mutaxassis degan malaka attestasiyasini berganlik uchun yig'im;
- bojxona rasmiylashtiruvi uchun bojxona yig'imi;
- tovarlarni saqlaganlik uchun bojxona yig'imi;
- tovarlarni bojxona kuzatuviga olganlik uchun bojxona yig'imi;
- dastlabki qororni qabul qilganlik uchun haq.

Qonun hujjatlarida boshqa bojxona to'lovlari ham belgilanishi mumkin.

Bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlarga qonun hujjatlariga muvofiq boj, qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i to'lanadi.

Tovarlar qaytarib olib chiqilgan taqdirda ilgari to'langan boj, qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i summalarini qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda qaytarilishi lozim.

Alohida bojlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat boshqaruvi organlari tashabbusi bilan o'tkaziladigan tekshiruv natijalariga binoan qo'llaniladi.

Alohida bojlarning stavkalari respublika Vazirlar Mahkamasi tomonidan har bir holat bo'yicha maxsus belgilanadi va ularning miqdori tekshiruv natijasida aniqlangan bahoni dumping tarzda arzonlashtirishga, subsidiyalar va aniqlangan zarar miqdoriga mutanosib bo'lishi kerak.

Bojxona qiymati — «Boj tarifi to'g'risida»gi qonunga muvofiq belgilanadigan va bojxona to'lovlarini hisoblab chiqarish maqsadida foydalanadigan tovar qiymatidir.

Bojxona qiymati o'tkaziladigan bojxona rasmiylashtiruvi vaqtida bojxona organiga deklarant tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va shartlarda ma'lum qilinadi (deklarasiyaga kiritiladi).

Bojxona qiymatini to'g'ri aniqlash va hujjatlar bilan tasdiqlangan ma'lumotlarga asoslanishi lozim.

Deklarant quyidagi huquqlarga ega:

- bojxona organiga taqdim etilgan, bojxona qiymatini belgilashda foydalanilgan ma'lumotlarning to'g'riligini isbotlash;
- e'lon qilingan bojxona qiymatiga aniqlik kiritish zaruriyati vujudga kelganida, bojxona organining ruxsati bilan o'zi deklarasiya bergan tovardan garov qo'yib yoki vakil

bankning kafolati ostida yoxud bojxona organi chiqargan tovarning bojxona bahosiga muvofiq bojxona to'lovlarini to'lab foydalanish;

- bojxona qiymatini aniqlash xususida bojxona organi chiqargan qaror ustidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shikoyat qilish.

Deklarant quyidagilarni amalga oshirishi shart:

- bojxona organiga bojxona qiymatini e'lon qilish;
- bojxona organining talabiga binoan bojxona qiymatini belgilashga doir ma'lumotlarni taqdim etish.

Deklarant tomonidan e'lon qilingan tovarning bojxona qiymatiga aniqlik kiritilishi yoki bojxona organiga qo'shimcha axborot berilishi munosabati bilan yuzaga kelgan harakatlarni deklarant to'laydi. Tovarning bojxona bahosini aniqlash munosabati bilan uni bojxonada rasmiylashtirish muddatining uzayishidan deklarant bojni to'lash muddatini amalda kechiktirish uchun foydalanishi mumkin emas.

Tovar uchun bojni hisoblab chiqarish, to'lash va undirish uning bojxona qiymati asosida respublikaning kodeksga muvofiq amalga oshiriladi.

Boj respublika davlat byudjetiga o'tkaziladi.

Bojxona bahosi respublikaning bojxona hududiga olib kirilgan tovarlar qiymatini bojxonada aniqlashning qonun hujjatlariga muvofiq qo'llaniladigan usullari tizimidir.

Respublikaning bojxona hududidan olib chiqib ketiladigan tovarlarning bojxona qiymatini aniqlash tartibi respublika Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Olib kirilayotgan tovar yuzasidan tuzilgan bitimning qiymatiga qarab baholash tovarning bojxona bahosini chiqarishning asosiy usulidir.

Agar asosiy usuldan foydalanib bo'lmasa, bojxona bahosini chiqarishning quyidagi usullarini birin – ketin qo'llaniladi:

- aynan bir xil tovar yuzasidan tuzilgan bitim qiymatiga qarab baholash;
- o'xshash tovar yuzasidan bitim qiymatiga qarab baholash;
- qiymatlarni chegirib tashlash asosida;
- qiymatlarni qo'shish asosida;
- rezerv usul;

Qiymatlarni chegirib tashlash va qiymatlarni qo'shish asosidagi usullar istalgan ketma – ketlikda qo'llanilishi mumkin.

Agar baholanayotgan, aynan bir xil yoki o'xshash tovarlar o'zining dastlabki holati o'zgarmagan holda respublikasi hududiga sotilsa, qiymatlarni chegirib tashlash asosida bojxona bahosini chiqarish usulidan bojxona qiymatini aniqlash uchun asos sifatida foydalanilganda tovar birligining baholanayotgan, aynan yoki bir xil o'xshash tovarlar olib kelinganligi vaqtdan boshlab kamida 90 kundan keyin respublika hududida katta turkumlarda bitimning sotuvchi bilan o'zaro bog'liq bo'lmagan ishtirokchisiga sotilgan bahosi qo'llaniladi.

Tovar birligining bahosidan quyidagi xarajatlar chegirib tashlanadi:

- vositachilik haqi to'lashga qilingan xarajatlar, foydaga qo'yiladigan odatdagi ustamalar va olib kelingan bir xil klassdagi va turdagi tovarlarni respublikada sotish bilan bog'liq umumiy xarajatlar;

- tovarlar olib kirish yoki sotish munosabati bilan respublikada to'lanishi lozim bo'lgan import bojlari, soliqlar, yig'imlar va boshqa to'lovlar summasi.
- respublikada transportda tashish, sug'urtalash, yuklash va tushirish uchun qilingan xarajatlar.

Olib kirilayotgan vaqtda qanday holatda bo'lsa, shu holatda baholangan, aynan bir xil bo'lgan yoki o'xshash tovarlar sotilgan hollar mavjud bo'lmasa, deklarantning iltimosiga binoan u qayta ishlangan tovar birligining bahosidan foydalanishi mumkin.

5.2 Bojxona tarifining huquqiy asoslari

Ushbu qonun, boj tarifini shakllantirish va qo'llanish tartibini, shuningdek respublikaning bojxona chegarasidan olib o'tilayotgan tovarlardan boj undurish qoidalarini belgilaydi.

Ushbu qonunning asosiy vazifalari respublikaning jahon iqtisodiyoti bilan samarali integrasiyalashuvi uchun shart—sharoit yaratish va iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishdan iboratdir.

Ushbu qonun respublikaning bojxona hududiga amal qiladi.

Boj tarifi — bojxona chegarasidan olib o'tiladigan, respublika tashqi iqtisodiy faoliyatining tovar nomenklaturasi (bundan keyin matnda tovar nomenklaturasi deb yuritiladi) prinsiplari va qoidalariga muvofiq holda bir tizimga solingan tovarlarga nisbatan qo'llaniladigan boj stavkalarining to'plamidir. Tovar nomenklaturasi respublika Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Boj — respublikaning bojxona chegarasidan tovarlar olib o'tilayotganda bojxona organlari tomonidan undiriladigan to'lov.

Respublikada import boji, eksport boji, mavsumiy va alohida (maxsus dempingga qarshi, kompensasiya) boj qo'llaniladi.

Respublikada boj stavkalarining quyidagi turlari qo'llaniladi:

- boj undiriladigan tovarlarning bojxona qiymatiga nisbatan foizlarda hisoblanadigan advalor stavkalari;
- boj undirilishidan tovarlar birligi uchun belgilangan miqdorda hisoblanadigan xos stavkalar;
- bojning advalor hamda xos turlarini o'z ichiga oladigan aralash stavkalar.

Agar respublikaning xalqaro shartnomasi boj tarifi to'g'risida qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidolari qo'llaniladi.

Import boji xalqaro shartnomalarga muvofiq belgilanadi.

Respublika savdo iqtisodiy aloqalarda eng ko'p qulaylik berish tartibini qo'llayotgan mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlar uchun undiriladigan import boji stavkalarining eng kam yoki eng ko'p miqdori qonun hujjatlarida belgilab qo'yiladi.

Savdo iqtisodiy aloqalarda eng ko'p qulaylik berish tartibi nazarda tutilmagan mamlakatda ishlab chiqarilgan yoki qaysi mamlakatda ishlab chiqarilganligi aniqlanmagan tovarlar uchun undiriladigan import bojining stavkalari ikki barobar oshiriladi, ushbu qonunga muvofiq respublika tomonidan tarif preferensiyalari beriladigan hollar bundan mustasno.

Import va eksport bojining stavkalari respublika Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan tartibda joriy etiladi.

Mavsumiy bojlar respublika Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanib tovarlar olib kirish va olib chiqishni tartibga solish uchun qo'llaniladi. Bunda boj tarifida nazarda tutilgan boj stavkalari qo'llanilmaydi. Mavsumiy bojlar ular belgilangan vaqtdan e'tiboran olti oydan ortiq amal qilishi mumkin emas.

Maxsus bojlar basharti o'xshash yoki bevosita raqobat qiluvchi tovarlar bojxona hududiga respublikadagi tovar ishlab chiqaruvchilarga ziyon etkazishi mumkin bo'lgan miqdorda va shartlarda olib kirilayotgan bo'lsa, himoya chorasi sifatida, shuningdek boshqa davlatlar tomonidan qilinayotgan respublikaning huquqlarini cheklovchi va manfaatlarini kamsituvchi boshqa xarajatlarga javob chorasi sifatida qo'llaniladi.

Dempingga qarshi bojlar quyidagi hollarda qo'llaniladi:

- tovarlar bojxona hududiga ularning olib chiqilgan davlatda ayni vaqtda amalda bo'lgan real qiymatidan past narxda olib kirilsa, agar bunday olib kirish respublikaning shunga o'xshash tovarlarni ishlab chiqaruvchilarga moddiy ziyon etkazsa yoki etkazish xavfini tug'dirsa yoxud respublikada xuddi shunday tovarlar ishlab chiqarishni tashkil qilish yoki kengaytirishga to'sqinlik qilsa;
- tovarlar bojxona hududidan uning respublikada ayni vaqtda amalada bo'lgan real qiymatidan past narxda olib chiqilayotgan bo'lsa, agar bunday olib chiqish respublikaning shunga o'xshash tovarlarni ishlab chiqaruvchilariga moddiy ziyon etkazsa yoki etkazish xavfi bo'lsa yoxud respublikaning ishlab chiqaruvchilari o'rtasida normal raqobat o'rnatilishiga to'sqinlik qilsa.

Kompensasiya bojlari quyidagi hollarda qo'llaniladi:

- Respublikaning bojxona hududiga ishlab chiqarish yoki olib chiqish paytida bevosita yoxud bilvosita subsidiyalardan foydalanilgan tovarlar olib kirilsa, agar bunday olib kirish respublikaning o'xshash tovarlar ishlab chiqaruvchilarga moddiy ziyon etkazsa yoki etkazish xavfi bo'lsa yoxud

respublikada xuddi shunday tovarlar ishlab chiqarishni tashkil qilish yoki kengaytirishga to'sqinlik qilsa;

- bojxona hududidan ishlab chiqarish yoki olib chiqish paytida bevosita yoki bilvosita subsidiyalardan foydalanilgan tovarlar olib chiqilsa, agar bunday olib chiqish respublikaning manfaatlariga moddiy ziyon etkazsa yoki etkazish xavfi bo'lsa.

5.3 Bojxona to'lovlarini kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatini berish tartibi va nazariy hisobi

Iqtisodiy faoliyatda qulay sharoitlar yaratish maqsadida bojxona qonunchiligini takomillashtira borib mazkur me'yoriy – huquqiy hujjatlar qabul qilingan.

Bojxona to'lovlari to'lanishini kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash to'g'risidagi qarorni tegishli hududiy bojxona organining boshlig'i qabul qiladi. Shundan so'ng ushbu bojxona organining bojxona to'lovlari bo'limi to'lovchi bilan birgalikda jadval tuzadi, unda bojxona to'lovlarini qisman to'lash muddatlari (davriy to'lovlar) va har bir so'ndirishda ularning miqdori belgilanadi. Bunda shuni nazarda tutish lozimki, muddat kechiktirilgani yoki bo'lib-bo'lib to'lanishiga imkon berilgani uchun Markaziy bank belgilagan takroriy moliyalash stavkasining 50 foizi miqdorida to'lov undiriladi.

Biroq, agar kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash respublika hukumatining qarori bilan taqdim etilsa, foizlar undirilmaydi.

Bojxona amaliyotida bojxona to'lovlarini to'lashni ta'minlashning usullari. Bojxona kodeksining tegishli moddasiga ko'ra, bojxona to'lovlarini to'lash tovarlar va transport vositalarini garovra qo'yish, uchinchi shaxsning, aniqrog'I – bank yoki

respublikada bank operatsiyalarini o'tkazish huquqiga ega bo'lgan boshqa moliya – kredit muassasasining kafolati yoxud agar tovarlar erkin muomalaga chiqarish bojxona rejimiga muvofiq chiqarilgan bo'lsa, to'lanishi kerak bo'lgan bojxona to'lovlari summalarini bojxona organining depozit hisob varag'iga o'tkazish yo'li bilan ta'minlanishi mumkin.

Bojxona organi boshqa qaror qabul qilmasa, garovga qo'yilgan tovarlar va transport vositalari garov qo'yuvchining egaligida qoladi.

Garov rasmiylashtirilishi tartibi.

Tovarlar va transport vositalarini gapovga qo'yib, to'lovni kechiktirish yoki bo'lib – bo'lib to'lash imkoniyati berilganida garov qo'yuvchi bilan bojxona organi o'rtasida ikki nusxada garov shartnomasi tuziladi, notarial tasdiqlanishi va amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilishi kerak. Uning bir nusxasi bojxona organida saqlanadi, boshqasi garov qo'yuvchida qoladi.

Garov shartnomasini bojxona organi nomidan bojxona organining boshlig'i yoki uning o'rnini bosadigan shaxs, shuningdek to'lovlar bo'limi boshlig'i (maxsus jurnalda belgi qo'ygan holda), garov qo'yuvchi nomidan bunga vakolat berilgan shaxs imzolaydi. Bunda hujjatda garovga qo'yilgan tovar yoki transport vositasining qoldiq (buxgalteriya hisobida aks ettirilgan) qiymati ko'rsatiladi va bojxona to'lovlari bo'limining boshlig'i shartnomada ko'rsatilgan to'lovlar summasining to'g'riligini tasdiqlaydi.

Biroq bojxona organining bojxona to'lovlari bo'limi dastlab quyidagi qarorlarni qabul qiladi. Birinchidan tovarlar yoki transport vositalari garovi bilan ta'minlangan bojxona to'lovlari to'lanishi kafolatining yetarliligi to'g'risida, ikkinchidan, garov buyumini saqlash joyi to'g'risida, shuningdek shartnomada nazar tutilgan,

kechiktirilgan yoki bo'lib – bo'lib to'lanadigan to'lovlar summalarini to'lash muddati tugagach, uni sotish imkoniyati to'g'risida.

Bojxona rasmiylashtiruvchi chog'ida bojxona yuk deklarasiyasiga garovga to'lovlarni kechiktirish va bo'lib – bo'lib to'lash imkonining berilishi to'g'risida tegishli yozuv va ularning tugash sanasi qayd etiladi. Bojxona to'lovlari va ularga doir foizlar belgilangan muddatda to'langanidan keyin garov qo'yuvchi bojxona organing ruxsati bilan garov buyumini qaytarib oladi.

Garovga qo'yiladigan buyumlar.

Respublikasi bojxona organlarining garovdan foydalanishi to'g'risida nizomga muvofiq bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlash uchun tovarlar, shu jumladan valyuta, valyuta boyliklari, qimmatli qag'ozlar, shuningdek avtotransport vositalari garov buyumi bo'la oladi.

Majburiyat bajarilishini ta'minlash usuli sifatida garovning samaradorligi nafaqat garov qo'yuvchining moliyaviy holatiga, balki garovga beriladigan mol – mulkning sifatiga ham bog'liqdir, likvidliligi va uzoq muddat saqlanishi buni aniqlash mezonlari bo'lishi mumkin. Shu sababli quyidagilar garovga qabul qilinmaydi elektr, issiqlik energiyasi va energiya boshqa turlari; umumiy foydalanishdagi korxonalar, binolar, imoratlar, inshootlar, er uchastkalari; boshqa majburiyatni ta'minlash uchun allaqachon garovga qo'yilgan yoki uchinchi shaxslar foydasiga bundan avvalgi boshqa majburiyatlarga tortilgan mol – mulk; mulkiy huquqlar; respublikaga olib kirish yoki undan olib chiqish taqiqlangan tovarlar na transport vositalari; tez buziladigan tovarlar; respublikadan tashqarida bo'lgan mol – mulk; qayerda joylashganligi va undan foydalanish ustidan doimiy nazoratni muayyan bojxona organi ta'minlay olmaydigan buyumlar; erkin sotilishi qonun bilan

taqiqlangan mahsulotlar va ishlab chiqarish chiqindilari. Shaxsiy tusdagi talablar, ularning garovi qonun bilan taqiqlangan boshqa talablar, shuningdek garov qo'yuvchi barcha mulkdorlarning roziligisiz boshqa shaxslarga bera olmaydigan (xususan, umumiy egalikda bo'lgan) mol–mulk va hokazolar garov buyumi bo'la olmaydi.

Shu tariqa, bojxona to'lovlarining to'lanishini ta'minlaydigan garov buyumi bo'lib erkin (bozor) narxi to'lanishi kerak bo'lgan summalar – bojxona boji, qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, undirilishi bojxona organlari zimmasiga yuklangan boshqa soliqlar; bojxona rasmiylashtiruv uchun bojxona yig'implari; saqlash uchun bojxona yig'implarining eng yuqori summolari: ko'rsatilgan summalardan respublika Markaziy banki belgilaydigan takroriy moliyalash stavkasi bo'yicha hisoblab chiqariladigan foizlar; garov buyumini tutib turish bo'yicha ehtimoliy chiqimlarni va bojxona organlari oldidagi majburiyatlar bajarilmagan taqdirda davlat mulkiga aylantirish xarajatlarini ko'plashga hamda sotish munosabati bilan tovarlar va transport vositalari qiymatining 15 foizidan ham bo'lmagan tovarlar va transport vositalari xizmat qilishi mumkin.

Bank kafolati bulganda bojxona to'lovlarini kechiktirish va bo'lib – bo'lib to'lash imkoniyatini berish tartibi va shartlari.

Kechiktirish yoki bo'lib – bo'lib to'lash imkoniyati bank operatsiyalarini o'tkazishga respublika Markaziy bankining lisenziyasini olgan vakolatli bankning kafolati mavjud bo'lganida beriladi. Bojxona to'lovlarining to'lanishini ta'minlaydigan bank kafolati bojxona organiga to'lovining bojxona to'lovlari to'lanishi uchun mas'ul shaxs (deklarant yoki tovarlarni olib o'tuvchi shaxs) tomonidan bojxona deklarasiyasi topshirilishiga qadar yoki u bilan bir vaqtda unga to'lovlarni kechiktirish yoki bo'lib – bo'lib to'lash

imkoniyatini berish to'g'risidagi yozma arizasi bilan birga taqdim etiladi. Agar bojxona to'lovlari summasining miqdori hamda kechiktirish yoki bo'lib—bo'lib to'lash imkoniyati taqdim etilgani uchun foizlar kafolatda ko'rsatilgan summadan oshib ketsa, u qabul qilinmaydi.

Shuni e'tiborda tutish lozimki, qonunga ko'ra to'lovchi belgilangan muddatlarda berilgan kechiktirish yoki bo'lib—bo'lib to'lash imkoniyati uchun tegishli bojxona to'lovlari va foizlarni to'lamagan taqdirda boqimandaning butun summasi, shuningdek to'lovni kechiktirganlik uchun penyani bojxona organi kafildan undiradi.

Tegishli summalar bojxona organining depozitiga kiritilganda to'lovni kechiktirish yoki bo'lib—bo'lib to'lash imkoniyagini berish shartlari.

Bojxona to'lovlari va ularga doir foizlar hisob—kitobiga asoslanib pul summasini kirim qiladi. Bunda mablag'lar bojxona organining depozitiga bojxona yuk deklarasiyasi qabul qilinishiga qadar kiritilishi kerak.

Agar ularni uchinchi shaxs kiritsa, kechiktirish yoki bo'lib—bo'lib to'lash imkoniyati faqat quyidagilar mavjud bo'lganida berilishi mumkin; tegishli summalarni kiritayotgan shaxsning ularni to'lash uchun mas'ul shaxs uchun bojxona to'lovlari va foizlar to'lanishini ta'minlash imkoniyati to'g'risidagi yozma arizasini tegishli bojxona to'lovlari va foizlar o'z muddatida to'lanmagan taqdirda u kiritgan summalarni davlat byudjetiga bojxona to'lovlari sifatida o'tkazishga uning roziligi. Bojxona organining depozitiga bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlash sifatida kirim qilingan pul mablag'lari, barcha tegishli bojxona to'lovlari va foizlar to'langanidan keyingina, to'lovchiga qaytariladi.

Bojxona to'lovlari kechiktirish va bo'lib – bo'lib to'lash uchun bojxona organiga qanday hujjatlarni taqdim etish zarur.

To'lovlarni kechiktirish yoki bo'lib – bo'lib to'lash imkoniyatini olish uchun bojxona to'lovlarining to'lovchisi faoliyat hududida bojxona rasmiylashtiruvi amalga oshiriladigan hududiy bojxona organiga quyidagi hujjatlarni taqdim etishi zarur:

- xo'jalik yurituvchi sub'ektning blankida belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan, muhr, rahbar va bosh buxgalterning imzolari bilan tasdiqlangan, byudjet bilan hisob – kitobning yakuniy sanasi ko'rsatilgan, kafolat xati ko'rinishidagi ariza;
- bojxona to'lovlari to'lanishi ta'minlanganligini (tovar yoki transport vositasi garovga berilishi, bank kafolati yoki to'lashning uchinchi shaxs tomonidan ta'minlanishi) tasdiqlaydigan hujjat;
- xizmat ko'rsatuvchi bankning mazkur xo'jalik yurituvchi sub'ektning talab qilib olingungacha depozit hisob – varag'ida mablag'lar yo'qligi to'g'risida (xo'jalik yurituvchi sub'ektning hisob – kitob raqami mavjudligida), muhr va bank boshqaruvchisi yoki uning o'rnini bosadigan shaxsning imzosi bilan tasdiqlangan ma'lumotnomasi;
- kontraktning va to'lanadigan bojxona to'lovlari summasi hisob – kitobining nusxalari.

Eksport mahsuloti ishlab chiqarish uchun moddiy – texnik resurslar importini amalga oshiradigan ishlab chiqaruvchi korxonalar QQS to'lashni kechiktirish imkoniyatiga ega bo'lish uchun qo'shimcha ravishda bojxona organiga rahbar va bosh buxgalter imzolari bilan (tashkilot muhri bilan tasdiqlangan) mahsulot eksport to'g'risida yozma majburiyat taqdim etib, unda eksport mahsuloti

ishlab chiqarishning va eksportni amalda amalga oshirishning uzil – kesil muddatini ko'rsatadilar.

Bojxona to'lovlarini to'lashni kechiktirish va bo'lib – bo'lib to'lash muddati.

To'lovlarni to'lashni kechiktirish va bo'lib – bo'lib to'lash muddati, to'lov miqdoridan qat'i nazar, ikki oydan oshishi mumkin emas, bundan eksport mahsulotlari mustasno, ularga QQS to'lashni kechiktirish imkoniyati BYuD qabul qilingan kundan boshlab 90 kunga berilishi mumkin. Moddiy ishlab chiqarish va xizmatlar sohasidagi mikrofirmalar va kichik korxonalarga, fermer xo'jaliklariga, shuningdek yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan dehqon xo'jaliklariga o'z ehtiyojlari uchun import qilinadigan uskunalar, xom ashyo va moddiy resurslarga bojxona to'lovlarini to'lashga doir (bojxona rasmiylashtiruvi uchun yig'imlar bundan mustasno) foiz undirmasdan 90 kun muddat bilan to'lash qechiktirilishi mumkin.

Bojxona to'lovlarini kechiktirish yoki bo'lib – bo'lib to'lash imkoniyati berilgani uchun foizlar hisobi.

To'lovlarni kechiktirish yoki bo'lib – bo'lib to'lash imkoniyati berilgani uchun foizlarni hisoblash milliy valyuta – so'mda amalga oshiriladi.

To'lovlarni kechiktirish quyidagi formula bo'yicha hisoblab chiqariladi:

$$K_{\phi} = \frac{C \cdot O_o \cdot C_T \cdot 12}{365 \cdot 100}$$

bu erda K_{ϕ} – kechiktirish imkoniyati berilgani uchun foizlar;

C – to'lanishi bo'yicha kechiktirish imkoniyati berilgan bojxona to'lovlarining umumiy summasi; O_o – kechiktirish imkoniyati berilgan kunlarning haqiqiy soni; C_T – bojxona deklarasiyasi qabul qilingan kunda respublika Markaziy banki belgilagan takroriy

moliyalash stavkasi (MB takroriy moliyalash stavksining 50 foizi); 365 – taqvimiy yildagi kunlar soni.

Bo'lib – bo'lib to'lash imkoniyati berilganida uning uchun foizlar quyidagi formula bo'yicha hisoblab chiqariladi:

$$B_{\phi} = \frac{C_{II} \cdot O_P \cdot C_T \cdot 12}{365 \cdot 100}$$

bu erda B_{ϕ} – bo'lib – bo'lib to'lash imkoniyati berilgani uchun foizlar; C_p – to'lanishi bo'yicha bo'lib – bo'lib to'lash imkoniyati berilgan bojxona to'lovlarining umumiy summasi; O_p – bo'lib – bo'lib to'lash imkoniyati berilgan kunlarning haqiqiy soni.

Bo'lib – bo'lib to'lash imkoniyati berilgan bojxona to'lovlari qisman to'langanda (tuzilgan jadvalga muvofiq], ularning bojxona yuk deklarasiyasiga ko'ra hisoblab chiqarilgan umumiy summasi so'ndirilgan qarz summasiga kamaytiriladi,

5.4 Bojxona imtiyozlari va preferensiyalari

Tovarlarga nisbatan tarif imtiyozlari va preferensiyalar boj tarifi to'g'risidagi qonun bilan belgilanadi va ular individual xususiyatga ega bo'lishi mumkin emas, ushbu qonunning ma'lum moddalarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Tarif imtiyozlari respublika Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda beriladi.

Respublikaning boshqa davlatlar bilan savdo iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirishda:

Respublika bilan birga erkin savdo zonasi yoki bojxona ittifoqini tashkil qilgan yoxud shunday zona yoki ittifoq tuzish maqsadini ko'zlovchi bitimni imzolagan davlatlarda ishlab chiqarilgan tovarlarga Respublika Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan Respublika milliy preferensiyasi tizimidan foydalanuvchi rivojlanayotgan mamlakatlarda ishlab chiqarilgan tovarlarga nisbatan boj to'lashdan

ozod qilish, boj stavkalarini kamaytirish yoki preferensial tartibda tovar olib kirishga (olib chiqishga) tarif kvotalari belgilash kabi preferensiyalar yo'l qo'yiladi.

Tarif imtiyozlari berish.

Respublikaning tashqi savdo siyosatining uning bojxona hududi doirasida amalga oshiriladi.

Respublika bojxona kodeksida belgilangan tegishli bojxona rejimlari doirasida bojxona hududiga vaqtincha olib kiriladigan yoki undan vaqtincha olib chiqiladigan tovarlarga;

Respublikaning xalqaro shartnomalarga muvofiq chet elda investisiya sohasidagi hamkorlik ob'ektlarini qurish uchun butlovchi buyumlar tarkibida olib chiqiladigan tovarlarga;

Respublikaning bojxona hududidan davlat ehtiyojlari uchun eksportga ajratilgan hajmlarda olib chiqiladigan tovarlarga;

Respublikaning bojxona hududiga chet el investisiyalari ishtirokidagi korxonalarining chet el korxonalarining nizom fondlariga ulush sifatida olib kiriladigan tovarlarga, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq mahsulotni taqsimlash to'g'risidagi bitimlarda nazarda tutilgan hollarda shundan korxonalar olib chiqib ketadigan o'zlari ishlab chiqargan tovarlarni ayrim turlariga nisbatan ilgari to'langan bojni qaytarish, boj stavkasini kamaytirish va alohida hollarda bojdin ozod qilish kabi tarif imtiyozlari berilishiga yo'l qo'yiladi.

Boj undirishdan quyidagilar ozod qilinadi:

- xalqaro yo'nalishda yuklar, bagaj va yo'lovchilar tashiydigan transport vositalari, shuningdek ularni yo'lda, oraliq to'lash joylarida bir maromda ishlashi uchun zarur bo'lgan yoki uning transport vositalarida yuz bergan, avariyalarga (nosozliklarga) baro'am berish uchun chet ellarda sotib

olingan moddiy texnika ta'minota buyumlari va asbob anjomlari, yoqilg'i, oziq – ovqat mahsulotlari va boshqa mol – mulk;

- qonun hujjatlariga muvofiq respublikaning valyutasi chet el valyutasi (nulizmatika uchun ishlatiladigan valyuta bundan mustasno) shuningdek qimmatli qog'ozlar;
- dengizda ov bilan band bo'lgan respublika kemalarini hamda respublikaning yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ijaraga olingan kemalarni ta'minlash maqsadida bojxona hududidan tashqariga olib chiqiladigan moddiy texnika ta'minoti va anjomlar, yonilg'i, oziq – ovqat va mol – mulk, shuningdek ularni respublikaning bojxona hududiga olib kiriladigan ov mahsulotlari;

Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda davlat mulkiga aylantirilishi lozim bo'lgan tovarlar:

- chet davlatlar vakillarining respublika qonun hujjatlari yoki xalqaro shartnomalarga muvofiq boj to'lanmasdan bularni olib kirish huquqiga ega bo'lgan jismoniy shaxslarning rasmiy yoki shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalanishga mo'ljallab bojxona hududiga olib kiriladigan yoki bu hududdan olib chiqiladigan buyumlar;
- insonparvarlik yordami sifatida davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan beg'araz yordam tariqasida yoki xayriya maqsadlarida, shu jumladan texnik yordam ko'rsatish tarzida avariya va halokatlar, tabiiy ofatlarning oqibatlarini bartaraf etish maqsadida respublikaning bojxona hududiga olib kiriladigan va undan undan olib chiqiladigan tovarlar;

- bepul o'quv davolash va maktabgacha tarbiya bolalar muassasalari uchun mo'ljallangan o'quv qo'llanmalari;
- uchinchi davlatlar uchun mo'ljallangan va bojxona nazorati ostida respublikaning bojxona hududidan tranzit tartibida olib o'tiladigan tovarlar;
- bojxona qonun hujjatlariga muvofiq jismoniy shaxslar tomonidan bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan va ishlab chiqarish yoki boshqa tijorat faoliyatini olib borish uchun mo'ljallangan tovarlar;
- kichik va o'rta biznes korxonalarini o'zlari tashkil etayotgan ishlab chiqarishlari uchun texnologiya uskunalarini import qilganda.

5.5 TIF TN interpretasiyasining asosiy vazifalari

Tovarlar klassifikatsiyasida quyidagi qoidalarga amal qilish lozim.

Ishdagi nomenklaturadan foydalanishi uchun qo'llaniladigan guruhlar va guruh ichidagi guruhlar, bo'limlar nomlari. Yuridik maqsadlarda tovarlar klassifikatsiyasi tovarlar nomi, pozitsiyasi va guruh hamda bo'limlari orqali aniqlanadi. Agar ushbu aniqlashlar yangi fikr yuritishni talab qilmasa va quyidagi hollar bilan ifodalansa:

a) har qanday olib o'tish tovar pozitsiyasi nomi va qandaydir tovarning kompleksiz va tugallanmagan olib o'tish xususiyatini o'zida mujassamlashtiradi deb tushunish kerak. yuqorida ifoda etilgan kompleksiz va tugallanmagan tovar o'zida komplekt va tugallanmagan tovar xususiyatini mujassamlashtirgan.

b) bir yoki undan ortiq material yoki moddadan iborat tovarlar klassifikasiyasi 3 — qoidada berilgan ko'rsatmalarga asoslangan holda amalga oshadi.

2 (b) qoidasini qo'llashda yoki qandaydir sabablarga ko'ra tovarlarni ikki yoki undan ortiq tovar pozitsiyasi, klassifikatsiyasiga kiritish mumkin, u quyidagichi amalga oshiriladi:

a) xohish shunday tovar pozitsiyasiga bildiriladi, qaysiki o'zida tovar haqida konkret ma'lumotlarni mujassamlashtirgan bo'lsa;

b) qorishmalar bir yoki undan ortiq komponentlardan tashkil topgan mahsulot bo'lib chakana savdo tarkibida ifodalanadi va shunda mahsulotlar va materiallar bo'yicha klassifikatsiyalanadi qaysiki uni tarkibini tashkil etadi.

v) 3(a) va 3(b) qoidalar bo'yicha klassifikatsiyalana ololmaydigan tovarlar, so'nggi ko'rilib o'tilayotgan tovarlar pozitsiyasi bo'yicha klassifikatsiyalanadi.

Yuqorida aytib o'tilgan klassifikatsiyalana ololmaydigan tovarlar, klassifikatsiyalanayotgan tovarlar, o'xshash bo'lgan tovarlar pozitsiyasi bo'yicha klassifikatsiyalanadi.

Barcha tovarlar klassifikatsiyasi va ularning pozitsiyalarini aniqlash bojxona bojlarini va boshqa to'lovlarni undirib olishda qo'llaniladi va iqtisodiy — statistik analiz qilishda keng sur'atda foydalaniladi.

6 bob. Tovarlarning bojxona qiymatini aniqlash

6.1 Tovarlar qiymati bojxona bahosini chiqarishning usullari

Olib kirilayotgan tovar yuzasidan tuzilgan bitim qiymatiga qarab bojxona bahosini chiqarish.

Shuni qayd etish lozimki, baholashning mazkur usuli bajxona bahosini chiqarish amaliyotida eng ko'p qo'llaniladigan usuldir.

Respublika bojxona hududiga olib kirilayotgan tovarning bojxona qiymati — bitim qiymatidan, ya'ni olib kirilgach tovar uchun respublika bojxona chegarasidan o'tish vaqtida amalda to'langan yoki to'lanishi lozim bo'lgan bahodan iboratdir, basharti:

- bojxona qiymatini e'lon qilish vaqtida deklarant foydalangan ma'lumotlar hujjatlar bilan tasdiqlangan va to'g'ri bo'lsa;
- xaridornng tovarlarni tasarruf etishi yoki ulardan foydalanishiga taalluqli cheklovlar bo'lmasa, qonun hujjatlarda belgilangan cheklovlar bundan mustasno;
- tovarlarning sotilishi yoki narxi baholanayotgan tovarlarning bojxona keladigan qandaydir shartlar yoki fikrlarga sabab bo'lmasa;
- xaridor tovarni keyinchalik qayta sotishi, tasarruf etishi yoki undan foydalanishidan kelgan tushumning biron — bir qismi bevosita yoki bilvosita sotuvchiga o'tmasa;
- xaridor va sotuvchi bir — biriga bog'liq shaxslar bo'lmasa, bunday o'zaro bog'liqlik bitim qiymatiga tya'sir etmaganligi deklarant tomonidan isbot qilingan hollar bundan mustasno.

Bojxona qiymatini aniqlashda olib kirilayotgan tovar uchun amalda to'langan yoki to'lanishi lozim bo'lgan bahoga quyidagi xarajatlar qo'shiladi, basharti ular mazkur bahoga kiritilmagan bo'lsa:

1) tovarni bojxona hududiga olib kiriladigan joyga etkazib keltirgunga qadar qilingan xarajatlar; tashish qiymati; yuklash, tushirish, yuklash va boshqa joyga to'kish bilan bog'liq xarajatlar; sug'urta summasi;

2) xaridor tomonidan qilingan xarajatlar; vositachilik va brokerlik haqlari, tovarni sotib olish chog'idagi vositachilik xarajatlari bundan mustasno; konteynerlar va (yoki) ko'p marta ishlatiladigan boshqa idishlar qiymati, agar ular baholanayotgan tovar bilan bir butun deb hisoblansa; o'rash qiymati, bunga o'rash materiallari qiymati va o'rash haqi kiradi;

3) xizmatlarning hamda sotuvchi xaridorga tekinga yoki arzon narxda bevosita yoxud bilvosita beradigan boshqa tovarlarning qiymati;

4) intellektual mulk ob'ektlaridan foydalanganlik uchun xaridor baholanayotgan tovarlarni sotish sharti sifatida bevosita yoki bilvosita to'lashi shart bo'lgan lisenziya to'lovlari va boshqa to'lovlar;

5) olib kirilgan tovarni keyinchalik qayta sotish, tasarruf etish yoki undan foydalanishdan kelgan tushumning bevosita yoki bilvosita sotuvchiga tegishli bo'lgan istalgan qismining qiymati.

Tovarnng bojxona qiymatini aniqlash uchun olib kirilayotgan tovar yuzasidan tuzilgan bitim qiymatiga qarab bojxona bahosini chiqarish usulidan foydalanish mumknn emas, basharti:

- xaridorning baholanayotgan tovarga bo'lgan huquqlari cheklangan bo'lsa, qonun hujjatlarida belgilangan cheklovlar va tovar bahosiga jiddiy ta'sir qilmaydigan cheklovlar bundan mustasno;

- tovarni sotish va bitim qiymati ta'sirini hisobra olish mumkin bo'lmagan shartlarga rioya etilishiga bog'liq bo'lsa;
- bojxona qiymatini e'lon qilish vaqtida deklarant foydalangan ma'lumotlar hujjatlar bilan tasdiqlanmagan bo'lsa yoki ular noto'g'ri bo'lsa;
- bitim qatnashchilari bir—biriga bog'liq shaxslar bo'lsa, ularning o'zaro bog'liqligi bitim bahosiga ta'sir etmagan va bu narsa deklarant tomonidan isbot qilingan hollar bundan mustasno.

Bir—biriga bog'liq shaxslar deyilganda quyidagi keltirilgan belgilarning aqalli bittasiga mos keladigan kishilar tushuniladi:

- bitim qatnashchilaridan bittasi (jismoniy shaxs) yoki bitim qatnashchilaridan birining mansabdor shaxsi ayni bir vaqtda bitimda qatnashayotgan boshqa shaxsning mansabdor shaxsi bo'lsa;
- bitim qatnashchilari korxonaga birgalikda egalik qiluvchi shaxslar bo'lsa;
- bitim qatnashchilari mehnat munosabatlari orqali o'zaro bog'liq bo'lsa;
- bitim qatnashchilaridan biri bitimga qatnashayotgan boshqa shaxs nizom kapitalining ovoz huquqini beruvchi kamida besh foiziga teng bo'lgan ulush (pay) yoki aksiya egasi bo'lsa;
- bitimning har ikkala qatnashchisi bevosita yoki bilvosita uchinchi shaxs nazorati ostida bo'lsa;
- bitim qatnashchilari birgalikda bevosita yoki bilvosita uchinchi shaxsni nazorat qilsalar;
- bitim qatnashchilaridan biri bitimda qatnashayotgan boshqa shaxsning bevosita yoki bilvosita nazorati ostida bo'lsa;

- bitim qatnashchilari yoki ularning mansabdor shaxslari qarindosh bo'lsalar.

Aynan bir xil tovar yuzasidan tuzilgan bitim qiymatiga qarab bojxona bahosini chiqarish.

Aynan bir xil tovar deyilganida har jihatdan, shu jumladan: fizik xususiyatlari; sifati va bozordagi qadri; qaysi mamdakatda ishlab chiqarilganligi; ishlab chiqaruvchisi kabi belgilari jihatidan baholanayotgan tovar bilan bir xil bo'lgan tovar tushuniladi.

Tovarning tashqi ko'rinishidagi juz'iy farqlar, agar u boshqa jihatlari bilan yuqorida ko'rsatilgan talablarga mos bo'lsa, uni aynan bir xil emas, deb hisoblash uchun asos bo'la olmaydi.

Aynan bar xil tovar yuzasidan tuzilgan bitim qiymati boj qiymatini belgilash uchun asos qilib olinadi, agar bu tovar:

- baholanayotgan tovar olib o'tilgunga qadar ko'pi bilan 90 kun oldin respublikaning bojxona hududiga olib kirish uchun sotilgan bo'lsa;
- taxminan o'shancha miqdorda va (yoki) o'shanday tijorat shartlarida olib kirilgan bo'lsa. Agar aynan bir xil tovar ko'p yoki kam miqdorda va (yoki) boshqa tijorat shartlarida olib kirilgan bo'lsa, baholanayotgan tovarning bojxona qiymatiga ana shu farqlarni hisobga olgan holda tuzatishlar kiritiladi, basharti, bu tuzatishlarning asosli ekanligini bojxona organiga hujjatlar bilan tasdiqlab berish mumkin bo'lsa.

Tuzatishlar deklarant tomonidan to'g'ri va hujjat bilan tasdiqlangan ma'lumotlar asosida kiritilishi lozim.

Agar mazkur usulni qo'llash vaqtida aynan bir xil tovar yuzasidan tuzilgan bitimning ikki va undan ortiq narxi mavjudligi

aniqlansa, olib kirilayotgan tovarning bojxona qiymatini belgilash uchun ularning eng past narxi qo'llaniladi.

O'xshash tovar yuzasidan tuzilgan bitim qiymatiga qarab bojxona bahosini chiqarish.

O'xshash tovar deyilganida har jihatdan bir xil bo'lmasada, o'xshash xususiyatlarga ega bo'lganligi va tarkibiy jihatdan o'xshashligi tufayli baholanayotgan tovar bilan bir xil vazifalarni bajara oladigan va tijorat nuqtai nazaridan uning o'rnini bosa oladigan tovar tushuniladi.

Tovarning o'xshashligini aniqlashda uning quyidagi belgilari: sifati, tovar belgisining mavjudligi va bozordagi qadri; qaysi mamlakatda ishlab chiqarilganligi; ishlab chiqaruvchisi hisobga olinadi.

O'xshash tovar yuzasidan tuzilgan bitim qiymatiga qarab bojxona qoidalarida asosida, shuningdek quyidagi hollarda:

- agar tovar baholanayotgan tovar ishlab chiqilgan mamlakatda ishlab chiqarilmagan bo'lsa, u baholanayotgan tovar bilan aynan bir xil yoki o'xshash hisoblanmaydi;
- baholanayotgan tovarning ishlab chiqaruvchisi tomonidan emas, balki boshqa shaxs tomonidan ishlab chiqarilgan tovar, baholanayotgan tovarni ishlab chiqargan shaxs tomonidan ishlab chiqarilgan aynan bir xil tovar ham, o'xshash tovar ham bo'lmagan taqdirdagina e'tiborga olinadi;
- agar tovarni loyihalash, uning ustida tajriba – konstruktorlik ishlari, uning badiiy bezagi, dizayni, eskizi, chizmalari va boshqa shunga o'xshash ishlar respublikada amalga

oshirilgan bo'lsa, bunday tovar aynan bir xil yoki o'xshash hisoblanmaydi.

Qiymatlarni chegirib tashlash asosida bojxona bahosini chiqarish.

Agar baholanayotgan, aynan bir xil yoki o'xshash tovarlar o'zining dastlabki holati o'zgarmagan holda respublika hududida sotilsa, ushbu usul qo'llaniladi.

Qiymatlarni chegirib tashlash asosida bojxona bahosini chiqarish usulidan bojxona qiymatini aniqlash uchun asos sifatida foydalanilganda tovar birligining baholanayotgan, aynan bir xil yoki o'xshash tovarlar olib kelingan vaqtdan boshlab kamida 90 kundan keyin respublika hududida katta turkumlarda bitimning sotuvchi bilan o'zaro bog'liq bo'lmagan ishtirokchisiga sotilgan bahosi qo'llaniladi.

Tovar birligining bahosidan quyidagi xarajatlar chegirib tashlanadi:

- vositachilik haqini to'lashga qilingan xarajatlar, foydaga qo'yiladigan odatdagi ustamalar va olib kelingan bir xil klassdagi va turdagi tovarlarni respublikada sotish bilan bog'liq umumiy xarajatlar;
- tovarlarni olib kirish yoki sotish munosabati bilan respublikada to'lanishi lozim bo'lgan import bojlari, soliqlar, yig'img'lar va boshqa to'lovlar summasi;
- respublikada transportda tashish, sug'urtalash, yuklash va tushirish uchun qilingan xarajatlar.

Olib kirilayotgan vaqtda qanday holatda bo'lsa, shu holatda baholangan, aynan bir xil yoki o'xshash tovarlar sotilgan hollar mavjud bo'lmasa, deklarantning iltimosiga binoan qo'shilgan

qiymatga tuzatish kiritilib, qayta ishlangan tovar birligining bahosidan foydalannish mumkin.

Qiymatlarni qo'shish asosida bojxona bahosini chiqarish.

Qiymatlarni qo'shish asosida bojxona bahosini chiqarish usulidan foydalanilganda, tovarning:

- baholanayotgan tovarni ishlab chiqarish munosabati bilan tayyorlovchi tomonidan sarflangan materiallar qiymatini va boshqa xarajatlarni;
- ayni bir turdagi tovarlarni olib chiqilayotgan mamlakatdan respublikaga sotishga xos bo'lgan umumiy xarajatlarni, shu jumladan, respublikaning bojxona chegarasidan o'tish joyigacha transportda tashib keltirish, yuklash va tushirish, sug'urtalash xarajatlarini;
- aynan bir xil yoki o'xshash tovarlarni respublikaga yetkazib berash natijasida eksportchi tomonidan odatda olinadigan foydani qo'shgan holda chiqariladigan bahosi bojxona qiymatini belgilash uchun asos sifatida qabul qilinadi.

Rezerv usuli yordamida bojxona bahosini chiqarish

Agar tovarning bojxona qiymatini yuqorida ko'rsatilgan usullar yordamida aniqlash mumkin bo'lmasa, baholanayotgan tovarlarning bojxona qiymati bojxona organida mavjud bo'lgan narxlarga doir axborot asosida belgilanadi. Bunda tovarning bojxona qiymatini belgilashda quyidagilarga asoslanish mumkin emas:

- respublikada ishlab chiqarilgan o'xshash tovarning sotuv narxiga;
- ikki yoki undan ortiq muqobil qiymatlarning eng yuqorisiga;

- tovarning olib chiqilgan (eksport qilingan) mamlakat ichki bozoridagi bahosiga.

6.2 Bojxona qiymatini nazariy aniqlash

Bojxona qiymatini ushbu tenglama bilan aniqlash mumkin

$$\mathbf{Bq} = \mathbf{Bn} - \mathbf{As} - \mathbf{Bt} - \mathbf{Tf} - \mathbf{T_x}$$

Aksiz solig'i stavkasi $\mathbf{As} = \mathbf{Bq}$

Aksiz solig'i koeffitsiyenti $\mathbf{m} = \mathbf{A}/100$

Tijorat foydasi $\mathbf{Tf} = \mathbf{R} (\mathbf{Bn} + \mathbf{As} + \mathbf{Bt})$

Tijorat foydasi koeffitsiyenti $\mathbf{R} = \mathbf{Tf}/100$.

bu erda $\mathbf{Bn}$ — bozor narxi;

Oziq — ovqat mahsulotlari uchun bojxona qiymatini aniqlashda, yagona bojxona to'lovlari 50%.

$$\mathbf{Bq} = \mathbf{Bn}/((\mathbf{m} + 1,5) (1 + \mathbf{R} + \mathbf{r}))$$

Nooziq — ovqat mahsulotlari uchun yagona bojxona qiymatini aniqlashda bojxona to'lovlari 90% tarzda aniqlanadi.

$$\mathbf{Bq} = \mathbf{Bn}/((\mathbf{m} + 1,9) (1 + \mathbf{R} + \mathbf{r}))$$

Pivo, alkohol va tamaki mahsulotlari uchun aksiz solig'i xos stavkada berilganda:

$$\mathbf{As} = \mathbf{v} \mathbf{m} \mathbf{D}$$

ifodadan foydalaniladi,

bu erda $\mathbf{v}$ — parametr (hajm) o'lchovlari;

$\mathbf{m}$ — aksiz solig'ini xos stavkasi;

$\mathbf{D}$ — amer.dollarini milliy so'mga nisbatan kursi.

Bojxona qiymati quyidagicha topiladi:

$$\mathbf{Bq} = (\mathbf{Bn} - \mathbf{v} \mathbf{m} \mathbf{D} (1 + \mathbf{R} + \mathbf{r})) / (1,9 (1 + \mathbf{R} + \mathbf{r}))$$

1 – misol. Rossiyada ishlab chiqarilgan 1 kg Osyotr balig'ining ikraresi respublikaning ulgurji bozoridagi narxi 50000 so'mni tashkil qiladi.

Aksiz solig'ining stavkasi 30%, koeffitsiyenti $m = 0,3$. Tijorat foydasi 20%, koeffitsiyenti $R = 0,2$. Transport va boshqa xarajatlar 5%, koeffitsiyenti $r = 0,05$.

Jismoniy shaxslar tomonidan oziq – ovqat mahsulotlarini olib kelganda undiriladigan yagona bojxona to'lovi 50% bo'lganda koeffitsiyenti $50/100=0,5$ bo'lganligi uchun 1 kg ikraning bojxona qiymatini quyidagi tenglama bilan topamiz:

$$B_q = B_n / ((m + 1,5) (1+R+r)) = 50000 / ((0,3 + 1,5) (1+0,2+0,05)) = 22222,2 \text{ so'm}$$

2 – misol. Pokistonda ishlab chiqarilgan charm kurtka respublikaning ulgurji bozoridagi narxi 300000 so'mni tashkil qiladi.

Aksiz solig'ining stavkasi 20%, koeffitsiyenti $m = 0,2$. Tijorat foydasi 20%, koeffitsiyenti $R = 0,2$. Transport va boshqa xarajatlar 5%, koeffitsiyenti $r = 0,05$.

Jismoniy shaxslar tomonidan nooziq – ovqat mahsulotlarini olib kelganda undiriladigan yagona bojxona to'lovi 90% bo'lganda koeffitsiyenti $90/100 = 0,9$ bo'lganligi uchun charm kurtkaning bojxona qiymatini quyidagi tenglama bilan topamiz:

$$B_q = B_n / ((m + 1,9) (1+R+r)) = 300000 / ((0,2 + 1,9) (1+0,2+0,05)) = 114285,7 \text{ so'm}$$

3 – misol. Germaniyada ishlab chiqarilgan Mercedes Bens yengil avtomobilning respublika ulgurji bozoridagi narxi 4000000 so'm, dvigatel` hajmi $v = 1500 \text{ sm}^3$.

Aksiz solig'ining stavkasi $m q 2,5$ amer.dollori. Milliy valyutani amer. dollariga nisbatan kursi $D = 800$ so'm.

Tijorat foydasi 20%, koeffisiyenti $R = 0,2$. Transport va boshqa xarajatlar 5%, koeffisiyenti $r = 0,05$.

Jismoniy shaxslar tomonidan nooziq – ovqat mahsulotlarini olib kelganda undiriladigan yagona bojxona to'lovi 90% bo'lganda koeffisiyenti $90/100 = 0,9$ bo'lganligi uchun charm kurtkaning

Engil avtomobilning bojxona qiymatini quyidagi tenglama bilan hisoblaymiz

$$Bq = (Bn - v m D (1+R + r))/ 1,9 (1+R+r) = (4000000-1500 \times 2,5 \times 800(1+0,2+0,05))/ (1,9 (1+0,2+0,05)) = 105263,15 \text{ so'm.}$$

6.3 Qo'shilgan qiymat solng'ini hisoblash

Sof foyda hajmini aniqlash. Tushum hajmidan ishlab chiqarishga zarur bo'lgan xarajatlar, amortizasion to'lovlar olib tashlanib, hosil bo'lgan miqdor yalpi daromadga kiradi. Yalpi daromadning bir qismi ish haqiga va qo'shimcha qiymat solig'iga ishlatiladi. Nihoyat korxona foyda olishga erishadi. Bundan tashqari korxona xo'jalik faoliyatining qonun tomonidan o'rnatilgan soliqlar miqdori to'langach sof foyda qoladi. Sof foyda hajmi quyidagi formula orqali hisoblanadi

$$SF = YaF - (Sich+S + Saks+ Sm) - Kr$$

bunda:

YaF — yalpi foyda;

Sich — foyda miqdoridan olinadigan soliq;

S — qo'shimcha qiymat solig'i;

Saks — aksizlar;

Sm — mulk solig'i;

Kr — kredit uchun bank foizlari.

Korxonaning moliya negizini moliyaviy reja tashkil qiladi, u o'z ichiga pul shaklidagi daromadlar va harajatlar balansini aks ettiradi. Balans quyidagi bo'limlarni o'z ichiga olgan:

- daromadlar va tushum vositalari. Bu bo'limga tashqi manbalardan keladigan mablag'lar ham kiritiladi.
- harajatlar va mablag' ajratmalari, Bu erda ishlab chiqarishni kengaytirishga ketadigan sarf – harajatlar ham kiradi.
- kredit va bank aloqalari. Davlat byudjetiga to'lovlar.

Strategiya tovarlarni ishlab chiqarish, hajmi va sifat darajalariga baho berishda yordam beradi va o'z ichiga quyidagi bo'limlarni kiritadi:

1. mavjud bozorlarni tadqiqod ob'ektlariga ajratgan holda tahlil qilish;
2. mahsulotning yashash davri va yangi tovarlarni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan sharoitlar;
3. talab va taklifning shakllanishi;
4. tovar va ishlab chiqarishning raqobatbardoshligi;
5. soliq siyosati.

Korxonaning tovar siyosatini belgilashda ilmiy – texnik mahsulotlar bozorining ta'siri katta. Ilmiy – texnik mahsulotlar bozori deganda yangi texnologiyani kashf qilgan ixtirochilar bilan shu kashfiyotga egalik qilish huquqini sotib oluvchilar o'rtasidagi aloqalar tushuniladi. Ilmiy – texnik mahsulotning ob'ekti sifatida loyiha muhandislik mahsulotlar, ilmiy – texnik hujjatlar, informasion xizmatlar va ilmiy adabiyotlar ko'rib chiqiladi. Ilmiy – texnik mahsulotlarga egalik qilishga ilmiy tadqiqot va konstruktorlik tajribalarini doimo olib boruvchi ilmiy tashkilotlarga ruxsat beriladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash. Respublikaning bojxona haqidagi qonunlarida belgilangai bojxona rejimlariga muvofiq

respublika hududiga import qilinadigan tovarlar qo'shilgan qiymat solig'i (QQS)ga tortiladigan manba hisoblanadi. Respublika hududiga import qilinadigan tovarlarga nisbatan qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqish va to'lash tartibi asosida amaliyotga joriy qilinadi.

Mazkur Yo'riqnoma respublikaning Soliq va Bojxona kodekslariga asosan ishlab chiqilgan hamda respublika hududiga import qilinadigan tovarlarga nisbatan qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqish va to'lash tartibini belgilaydi.

Iqtisodiy nuqtai nazardan rivojlangan har bir davlat iqtisodiyotga bilvosita ta'sir etish va o'z daromadlarini shakllantirishda soliqlarning bir butun tizimini qo'llaydi. Bu tizim, asosan to'g'ri va bilvosita soliqdardan iboratdir. Bilvosita (egri) soliqlar tizimiga bojxona organlari tomonidan undiriladigan, qo'shilgan qiymat va aksiz soliqlari hamda bojxona yig'imlar kiradi.

Respublika hududiga tovarlarni import qilayotgan jismoniy yoki yuridik shaxslar qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilar hisoblanadi. Qo'shilgan qiymat solig'ini bevosita deklarant yoki istalgan manfaatdor shaxs, agar qonun hujjatlarida o'zga hol nazarda tutilmagan bo'lsa to'lashi mumkin. Import qilinayotgan tovarlar uchun — QQS 20 % stavkada undiriladi.

Respublika hududiga import qilinadigan tovarlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini muvofiq belgilanadigan bojxona qiymati hisoblanadi. Tovarlar importa bo'yicha soliq solinadigan aylanma manba hajmiga bojxona qiymati bilan bir qatorda bojxona boji summasi va aksiz solig'i qatorda bojxona boji summasi (aksiz solig'i to'lanadigan tovarlar bo'yicha) kiritiladi.

QQS quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$\mathbf{Sqqs = (Bq + Ib + As) \times N/100}$$

bunda:

Sqqs — qo'shilgan qiymat solig'i summasi;

Bq — bojxona qiymati;

Ib — import boji;

As — aksiz solig'i;

N — QQS stavkasi.

Jismoniy shaxslar tomonidan tijorat maqsadida olib kelinadigan tovarlardan, qo'shilgan qiymat solig'i, bojxona bojlari va yig'imlar o'rniga yagona bojxona to'lovi to'lash joriy etildi.

7 bob.Bojxona rasmiylashtiruvi va deklarasiyasi

7.1 Deklarasiyalash jarayoni va bojxona brokeri

7.1.1 Deklarasiyalash shakllari va muddati

Respublika bojxona chegarasidan olib o'tilayotgan yoki bojxona rejimi o'zgartirilayotgan tovarlar va transport vositalari, shuningdek boshqa tovarlar va transport vositalari uchun qonun hujjatlarida belgilangan hollarda bojxona organiga deklarasiya topshirilishi lozim.

Deklarasiyalash tovarlar va transport vositalari to'g'risidagi, ular joylashtiriladigan bojxona rejimlari haqidagi aniq ma'lumotlarni, bojxona maqsadlari uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlarni belgilangan shaklda bayon etish orqali amalga oshiriladi.

Deklarasiyalashning shakli va tartibi, shuningdek bojxona deklarasiyasida ko'rsatiladigan ma'lumotlarning ro'yxati qonun hujjatlarida belgilanadi.

Tovarlar uchun bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazilayotgan bojxona organiga deklarasiya topshiriladi.

Tovarlar tashiydigan transport vositalari tovarlar bilan bir vaqtda deklarasiyalanadi.

Yuksiz transport vositalari va yo'lovchilar tashiyotgan transport vositalari respublikaning bojxona chegarasini kesib o'tish vaqtida deklarasiyalanadi.

Dengiz, daryo va havo kemalari o'zi yetib kelgan respublika bojxona hududidagi port yoki aeroportda yoxud o'zi jo'nab ketgan respublika bojxona hududidagi port yoki aeroportda deklarasiyalanadi.

Bojxona deklarasiyasi bojxona organlari tomonidan belgilangan muddatlarda topshiriladi. Bu muddatlar tovarlar va transport vositalari ko'rsatilgan kundan e'tiboran o'n besh kundan oshmasligi lozim.

Jismoniy shaxslar tomonidan notijorat maqsadlardagi tovarlarni qo'l yuki va bagaj holida bojxona chegarasidan olib o'tishda bojxona deklarasiyasi tovarlarni ko'rsatish bilan bir vaqtda topshiriladi.

Bojxona hududiga kirib kelayotgan transport vositalari respublika bojxona chegarasini kesib o'tganidan keyin ko'pi bilan uch soat, bojxona hududidan chiqib ketayotgan transport vositalari esa respublikaning bojxona chegarasini kesib o'tishiga kupi bilan uch soat qolganida deklarasiyalanadi.

Ushbu me'yorda ko'rsatilgan muddatlar bojxona organlari belgilaydigan tartibda va shartlarda uzaytirilishi mumkin.

Bojxona organi bojxona deklarasiyasini qabul qilishni rad etishga haqli emas.

Bojxona deklarasiyasi qabul qilinganligi rasmiylashtirilgan paytdan boshlab u yuridik ahamiyatga molik faktlardan dalolat beruvchi hujjatga aylanadi.

Bojxona deklarasiyasini taqdim etish bilan bir vaqtda bojxona organiga boshqa zarur hujjatlar ham topshiriladi. Bojxona organi

bojxona deklarasiyasi va taqdim etilgan hujjatlarda bayon etilgan ma'lumotlarni tekshirish uchun qo'shimcha ma'lumotlarni so'rab olishga haqli. Ko'rsatib o'tilgan hujjatlar va qo'shimcha ma'lumotlar ro'yxati qonun hujjatlarida belgilanadi.

Bojxona organi etishmayotgan hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim etish muddatlarini belgilashga haqli.

Bojxona organining ruxsati bilan xalqaro tashishlarda qo'llaniladigan chet tillarda tuzilgan hujjatlar taqdim etilishi mumkin.

Bojxona deklarasiyasida ko'rsatilgan ma'lumotlar bojxona organining ruxsati bilan deklarant tomonidan o'zgartirilishi yoki to'ldirilishi, topshirilgan bojxona deklarasiyasi esa qaytarib olinishi mumkin.

O'zgartirish, to'ldirish yoki kaytarib olish faqatgina:

- bojxona deklarasiyasini tekshirish boshlanguniga qadar;
- tovarlar va transport vositalarini ko'zdan kechirish boshlanguniga qadar;
- ko'rsatilgan ma'lumotlarning noto'g'ri ekanligi bojxona organi tomonidan aniqlanguniga qadar amalga oshirilishi mumkin.

Bojxona deklarasiyasini o'zgartirish yoki to'ldirish uning amal qilish doirasini kengaytirishi yoki toraytirishi mumkin emas.

Bojxona organlarining mansabdor shaxslari o'z tashabbusi bilan, shaxsning topshirig'i yoki iltimosiga binoan yozma bojxona deklarasiyasini to'ldirishga, bojxona deklarasiyasida ko'rsatilgan ma'lumotlarni o'zgartirish yoki to'ldirishga haqli emas, bojxona organlarining vakolatiga kiritilgan ma'lumotlarni bojxona deklarasiyasiga kiritish hollari, shuningdek agar mashinada ishlov berish uchun foydalaniladigan kodli ma'lumotlar bojxona

deklarasiyasida kodsiz ko'rinishda mavjud bo'lsa, kodli mu'lumotlarni o'zgartirish yoki to'ldirish bundan mustasno.

Agar deklarant alohida sabablar tufayli batafsil bojxona deklarasiyasini taqdim eta olmasa, bojxona organi qonun hujjatlarida belgilanadigan tartibda muvaqqat yoki to'liq bo'lmagan bojxona deklarasiyasini taqdim etish uchun ruxsat berishga haqli, bunda muvaqqat yoki to'liq bo'lmagan bojxona deklarasiyasida bojxona maqsadlari uchun zarur bo'lgan asosiy ma'lumotlar bayon etilishi va yetishmayotgan ma'lumotlar bojxona organi belgilaydigan muddatlarda taqdim etilishi shart qilib qo'yiladi.

Ayni bir shaxs tomonidan ayni bir xil tovarlar va transport vositalari muntazam ravishda olib o'tilsa, bojxona organi muayyan davr mobaynida respublikaning bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan barcha tovarlar va transport vositalariga bitta bojxona deklarasiyasi berilishiga ruxsat etishi mumkin.

Davriy bojxona deklarasiyasini topshirish hollari va tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

7.1.2 Deklarant

Tovarlar va transport vositalarini olib o'tuvchi shaxs yoki bojxona brokeri deklarant bo'lishi mumkin.

Respublikaning yuridik va jismoniy shaxsi deklarant bo'lishi mumkin, jismoniy shaxslar tomonidan bojxona chegarasi orqali notijorat maqsadlarida tovarlar olib o'tish hollari va bojxona organlari belgilaydigan boshqa hollar bundan mustasno.

Deklarant, u bojxona chegarasi orqali tovarlar va transport vositalarini olib o'tuvchi shaxs yoki bojxona brokeri bo'lishidan qat'i

nazar, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan barcha vazifalarni bajaradi va to'liq javobgar bo'ladi.

Deklarant bojxona deklarasiyasini topshirgunga qadar bojxona nazorati ostida tovarlar va transport vositalarini ko'zdan kechirishga, bojxona organining ruxsati bilan namunalar va nusxalar olishga haqli. Agar tovarlarga doir bojxona deklarasiyasida hisobga olingan bo'lsa, namunalar va nusxalar olinganida ular haqida alohida bojxona deklarasiyasi taqdim etilmaydi.

Tovarlar va transport vositalarini deklarasiyalash chog'ida deklarant:

- nazarda tutilgan tartibga muvofiq tovarlar va transport vositalarini deklarasiyalashga va bojxona organiga bojxona deklarasiyasini topshirishga;
- bojxona organining talabiga binoan deklarasiyalanayotgan tovarlar va transport vositalarini ko'rsatishga;
- bojxona organiga bojxona rasmiylashtiruvi uchun zarur bo'lgan hujjatlar va qo'shimcha ma'lumotlarni taqdim etishga;
- bojxona to'lovlarini to'lashga;
- bojxona organlariga bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirishda yordam berishga majburdir.

Qonun hujjatlarida deklarantning boshqa huquq va majburiyatlari ham nazarda tutilgan bo'lishi mumkin.

7.1.3 Bojxona brokeri

Bojxona brokeri — bojxona organining lisenziyasini olgan respublikaning yuridik shaxsidir.

Bojxona brokeri o'zini vakil qilgan shaxs hisobidan va uning topshirig'iga binoan bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha operatsiyalarni o'z nomidan o'tkazish va bojxona ishi sohasida boshqa vositachilik vazifalarini bashqarishga haqli.

Bojxona brokeri bilan uni vakil qilgan shaxsning o'zaro munosabatlari notarial tasdiqlangan shartnoma asosida ko'riladi.

Bojxona brokerining bojxona organlari oldidagi huquqlari va majburiyatlari uni vakil qilgan shaxs bilan tuzilgan shartnomada cheklab qo'yilishi mumkin emas.

Bojxona organining malaka attestatiga ega bo'lgan mutaxassis deklarant nomidan bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha harakatlarni amalga oshirish huquqiga ega.

Deklarant bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha mutaxassisning bojxona organlari oldidagi majburiyatlarini cheklab qo'yishi mumkin emas.

7.2 Bojxona deklarasiyasini to'ldirish va rasmiylashtirish tartibi

Bojxona deklarasiyasi (T—6 shakli) jismoniy shaxslar tomonidan respublikaning bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan va ishlab chiqarish yoki boshqa tijorat faoliyati uchun mo'ljallanmagan respublikaning milliy valyutasi, chet el valyutasi, valyuta boyliklari, tovarlar, transport vositalari va boshqa predmetlarining bojxona nazorati hamda rasmiylashtirilishi paytida qo'llaniladi.

Deklarasiya 16 yoshga to'lgan shaxs tomonidan Respublikaning Davlat chegarasidagi belgilangan o'tkazish punktlari orqali

(aeroportlarda, temir yo'l vokzallarida, daryo portlarida) Respublika — ning bojxona chegarasini har gal kesib o'tganida, shuningdek kuzatib borilmaydigan yukni (bagajni) har gal jo'natish va xorijdan olish paytida to'ldiriladi.

Deklarasiyani to'ldirish tartibi.

Deklarasiya ilovaga binoan shakl buyicha 2 nusxada to'ldiriladi. Deklarasiyaning bir nusxasi bojxona organining yig'ma jildlarida qoladi, ikkinchi nusxasi deklarasiyani to'ldirgan shaxsga beriladi va unda ko'rsatilgan tovarlar va predmetlarni olib kirish yoki tegishlicha olib chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Tovarlar, transport vositalari va predmetlar kuzatib borilmaydigan bagajda jo'natilganda deklarasiyani tovarlar, transport vositalari va predmetlarning egasi bo'lmagan boshqa shaxs to'ldirishi mumkin, buning uchun u ushbu tovarlar va predmetlarning jo'natuvchisi bergan, belgilangan tartibda notarial tasdiqlangan ishonchnomani taqdim etadi. Bunday hollarda ishonchnoma deklarasiya bilan birgalikda bojxona organining xodimiga taqdim etiladi va deklarasiyaning bir nusxasi bilan birga bojxona organining yig'majildlarida saqlanadi.

Deklarasiya blanklari o'zbek, rus va ingliz tillarida tayyorlanadi. Shaxs ko'rsatilgan tillardan o'zi mukammal biladiganini tanlab, shu tilda deklarasiyani to'ldirishi mumkin.

Deklarasiyada barcha bandlar to'ldirilishi va barcha savollarga javob berilishi kerak.

Matnli axborot tegishli bandlarda bosma harflar bilan, buning uchun qat'iy belgilangan joylarga (kvadratlar bilan chegaralab ko'yilgan) yoziladi.

Savollarga javoblar kerakli "Ha" yoki "Yo'q" javobi berilgan kvadratchalar ustiga "X" belgisini chizish yo'li bilan beriladi.

Deklarasiya qo'yidagi tarzda to'ldiriladi:

1 – bandda shaxsning pasporti yoki boshqa guvohnomasiga muvofiq ma'lumotlar, doimiy istiqomat qilish mamlakati, fuqaroligi, jo'nayotgan mamlakat va borayotgan mamlakat, pasportning seriyasi va raqami ko'rsatiladi;

2 – bandda borish turi ko'rsatiladi;

3 – bandda safardan maqsad ko'rsatiladi;

4 – bandda yukning mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi;

5 – bandda tovarlarning mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlar va respublika milliy valyutasi yoki boshqa naqd valyuta, valyuta boyliklarining summasi, har qanday tur va holatda qimmatbaho metallardan yasalgan buyumlarning miqdori ko'rsatiladi;

6 – bandda tovarlar to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi.

16 yoshga yetmagan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek ularga tegishli bo'lgan tovarlar va predmetlar to'g'risidagi ma'lumotlar ularning ota – onalari, boshqa qarindoshlari yoki ularni kuzatib boruvchi shaxslar deklarasiyalarida, qarindoshlik darajasi, familiyasi, ismi va tug'ilgan yilini ko'rsatgan holda ko'rsatiladi.

Jismoniy shaxslar tomonidan tovarlar olib o'tilayotganida, deklarasiya 6 – bandining "a" kichik bandida ularning nomini, miqdori va qiymatini (respublikaning milliy valyutasida yoki erkin almashtiriladigan valyutada) ko'rsatish bilan bir qatorda, shaxs o'zi olib o'tayotgan tovarlar ishlab chiqarish yoki boshqa tijorat maqsadi uchun mo'ljallanmaganligini ham ko'rsatadi.

Deklarasiya 6 – bandining "a" kichik bandiga sig'magan tovarlar qo'shimcha xuddi shunday deklarasiya 6 – bandining "a" kichik bandida ko'rsatiladi.

Deklarasiya 5 va 6 — bandlarining "a" kichik bandida tovarlar va predmetlarni tavsiflash imkoniyatiga qarab ularning farqlovchi alomatlari va xususiyatlarini ko'rsatgan holda amalga oshiriladi.

Deklarasiya 6—bandining "b" kichik bandida transport vositasi to'g'risidagi ma'lumotlarni uni respublikasining bojxona chegarasini kesib o'tayotganda boshqargan fuqaro, texnik pasport hamda mazkur transport vositasiga egalik va uni boshqarish huquqini tasdiqlaydigan boshqa hujjatlar asosida to'ldiradi. Transport vositasini ishonchnoma bo'yicha boshqarish chog'ida shaxs deklarasiyada uning qonuniy egasi bergan, belgilangan tartibda notarial tasdiqlangan ishonchnoma to'g'risidagi ma'lumotlarni (reyestr raqami, berilish sanasi yoki notarial idoraning nomi hamda notariusning familiyasi, ismi, ota—sining ismini) yozma ravishda ko'rsatadi.

Tovarlar, transport vositalari va predmetlarni bojxona nazoratiga taqdim etishga qadar deklarasiya fuqaro yoki uning ishonchnomasi bo'yicha harakat qiladigan shaxs tomonidan imzolanishi kerak.

Deklarasiyaning bojxona organi xodimi tomonidan rasmiylashtirilishi tartibi

Bojxona deklarasiyasini rasmiylashtirishga bojxona organining hodimi bojxona nazoratiga unda ko'rsatilgan respublikasining milliy valyutasi, chet el valyutasi, valyuta boyliklari, tovarlar va boshqa predmetlar taqdim etish bilan bir vaqtda qabul qiladi.

Deklarasiya 5—bandining "a" kichik bandida raqamlar bilan yozilgan naqd milliy va chet el valyutasini bojxona organining xodili so'z bilan takrorlaydi. Yozuv bosh harflarda amalga oshiriladi, keyin biror—bir o'zgartish va qo'shimchalar kiritishga yo'l qo'ymaslik uchun perimetr bo'ylab o'rab qo'yadi hamda inspektorniig shaxsiy raqamli muhri bilan tasdiqlanadi.

Tovarlar va predmetlarning bojxona nazorati tugaganidan keyin deklarasiya bojxona nazoratini amalga oshirgan bojxona organi xodimining shaxsiy raqamli muhri bilan tasdiqlanadi.

Shaxsiy raqamli muhr deklarasiya 5—bandining "a" kichik bandiga va orqa tomoniga qo'yilib, bojxona organi xodimining imzosi bilan tasdiqlanadi. Deklarasiya 6—bandining "a" kichik bandiga qayd qilingan yozuvlar yalpi chiziq bilan o'rab qo'yiladi, yozuv uchun nazarda tutilgan barcha bo'sh joylar esa chizib qo'yiladi.

Deklarasiyadagi "Xizmat belgilari uchun" ustuni qo'yidagilar uchun ishlatilishi mumkin:

- tovarlar va predmetlar olib o'tilayotganida bojxona organining tegishli shtampini qo'yish uchun;
- bojxona qonunchiligini buzishlarni qayd etish uchun (bayonnomaning raqami va sanasi);
- bojxona organlari bergan kvitansiyalar va guvohnomalarning rekvizitlaring (nomlari, raqamlari va sanalarini) ko'rsatish uchun;
- zarurat bo'lganda chegarada davlat nazoratning boshqa turlarini amalga oshiradigan boshqa xizmatlarning (fitosanitariya, karantin) shtamplarini qo'yish uchun.

Yo'qolgan taqdirda deklarasiya tiklanmaydi va uning egasi unda ko'rsatilgan tovarlar va predmetlarni to'siqsiz olib o'tish huquqini yo'qotadi.

7.3 Elektron deklarasiyalash tizimi

Bojxona postlarining ishini tezlashtiradigan va oshkora qiladigan so'ngi uslub elektron deklarasiyalash tizimi bilan jihozlanishi lozim.

Elektron deklarasiyalashning asosiy afzalligi — bojxona rasmiylashtiruvini soddalashtirish va tezlashtirish imkonini beruvchi

qog'ozsiz texnologiyadir. Axborotga ishlov berish uzeligiga kira oladigan deklarant elektron bojxona yuk deklarasiyasini (EBYuD) to'ldirib, unga elektron raqamli imzo qo'yadi, boshqa zarur ma'lumotlar kiritib, bu axborotlarning barchasini avtorlashtirilgan xabar ko'rinishida mintaqaviy bojxona organiga yo'llaydi. Raqamli imzoning mavjudligi bu ma'lumotlar yuridik kuchga egaligini bildiradi. TIF ishtirokchisidan elektron deklarasiyani olgan bojxona inspektori berilgan ma'lumotlarni tekshirib, tovarni erkin muomalaga chiqarish haqida qaror qabul qiladi. Rasmiylashtirishning bunday usuli importchiga bojxona inspektori bilan bevosita muloqot qilmaslik imkonini beradi.

Elektron deklarasiyalash TIF ishtirokchilari uchun qulayliklarni tubdan o'zgartirishni anglatadi. Ularda tovar aylanmasini ancha oshirish va qo'shimcha xarajatlarni qiskartirish imkoniyati paydo bo'ladi. O'rta hisobda bojxonada rasmiylashtirish, jumladan tovarni ko'rikdan o'tkazish va chiqarish vaqti 25 daqiqani tashkil etadi. Markaziy bojxona boshqarmasi bojxonalarida oddiy texnologiya bo'yicha rasmiylashtirish taomili o'rta hisobda ikki sutkaga yaqin vaqtni olgan.

8 bob. Bojxona statistikasi

8.1 Bojxona statistikasining asosiy vazifalari va ob'ektlari

Bojxona statistikasi tashqi savdodagi jarayon va hodisalarni hisobiy tomonlarini o'rganadi, shuningdek bojxona bojlarining hisobot va tahlillarini, kontrabanda va bojxona qoidalarini buzilishlarni va hokazolarni.

Bojxona statistikasi davlat statistikasidan farqli ravishda ko'rsatkichlarni pastdan yuqoriga qarab ortib borgan sari informasiya bilan ifodalab boradi, lekin uning ko'rsatkichlar kamroq bo'ladi:

Bojxona statistikasining asosiy vazifalari:

- mamlakatlar eksporti va importi bo'yicha to'liq ishonchli hisobot bilan taominlash;
- mikroiqtisodiy holat bilan bog'liq tovarlar oqimi tahlili, eksport — import tuzulishi va tashqi savdoning rivojlanish tendensiyasi tahlili;
- davlat organlari bojxona siyosatini tartibga solishda ularni to'liq ma'lumotlar bilan ta'minlash;
- respublika bozorlari konyunkturasi tahlili;
- davlat byudjetiga bojxona to'lovlarining kelib tushishining nazorati;
- bojxona organlari huquq va majburiyatlari doirasida valyuta nazoratini amalga oshirish;
- to'lov balansi moddalarini va savdo tarkibini ishlab chiqish uchun yig'ish va qayta ishlash;
- tashqi savdoda MDH davlatlari o'rtasida o'zaro ma'lumot almashinuvini ta'minlash.

Bojxona siyosati bilan bog'liq boshqa vazifalar.

Bojxona statistikasi tashqi savdo bojxona statistikasiga va bojxona statistikasiga ajratiladi.

Tashqi savdo bojxona statistikasi predmeti bo'lib, mamlakatning tashqi savdo oboroti, eksport va import, eksport – import yo'nalishlari hisoblanadi.

Tashqi savdo bojxona statistikasida eksport tizimi bu – ishlab chiqarilgan mahsulotlarni mamlakat ichkarisidan tashqariga olib chiqish tushuniladi.

Import tizimi esa, tashqaridan mahsulotlarni mamlakat ichkarisiga olib kirish tushuniladi. Import milliy mahsulotlar zahirasi ko'paytirishga imkon yaratadi.

Bojxona statistikasini o'rganish ob'ektlari. Tashqi savdo bojxona statistikasining ob'ekti bo'lib, bevosita eksport–import tovarlari hisoblanadi.

Bojxona qonunchiligiga binoan tovarlar deganda, har qanday ko'chma mulk, shu jumladan valyuta va valyuta boyliklari, elektr, issiqlik energiyalari va energiya boshqa turlari, tegishli bandida qayd etilgan transport vositalaridan boshqa transport vositalari, intellektual mulk ob'ektlari, oldi–sotdi yoki ayirboshlash ob'ekti hisoblanuvchi bajarilgan ishlarning, ko'rsatilgan xizmatlarning natijalari tushuniladi.

Bundan tashqari, tashqi savdo bojxona statistikasida quyidagi hisobot yuritiladi:

- to'lov vositasi sifatida chiqmaydigan, monetar bo'lmaydigan oltin va kumush;
- BMT texnik yordam fondiga ajratiladigan yordam mablag'i, beminnat yordami;
- harbiy hisoblangan tovarlar;

- quvurlar orqali olib o'tiladigan tovarlar (neft, gaz), suv, elektr energiyasi;
- samolyot va kemalarga yoqilg'i, shuningdek yuk va engil avtomobillarga yoqilg'i;
- bir yoki undan ortiq arendaga olingan tovarlar;
- reeksport tovarlarni mamlakatga kirib kelishi;
- qo'shma korxonalar hisobiga olib chiqilgan (olib kirilgan) tovarlar;
- boshqa turdagi ishlar.

8.2 Bojxona statistikasi ko'rsatkichlari va maxsus bojxona statistikasi

Bojxona statistikasi ko'rsatkichlari. Bojxona statistikasi tashqi savdoda, shuningdek bojxona to'lovlarini hisobga olish va tahlil qilish, kontrabanda va bojxona qoidalarini buzilishiga qarshi kurash va hokazolar bilan bog'liq sohalarda ro'y berayotgan hodisa va jarayonlarni miqdoriy tomondan o'rganadi.

Pulda ifodalangan eksport va import miqdori asosiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib, ular asosida tashqi savdo samaradorligini, tashqi savdo balansining savdosi, tashqi savdoning mamlakat to'lov balansida tutgan o'rni aniqlanadi.

Tashqi savdo bojxona statistikasining tashkil etishda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

- hisobot davri;
- tovar oqimi yo'nalishi (olib kirish yoki olib chiqish);
- ishlab chiqarilgan mamlakat (olib kirishda);
- mo'ljallangan mamlakat (olib chiqishda);
- statistik qiymat;

- tovar nomi va kodi;
- netto og'irligi;
- qo'shimcha to'lov birliklari nomi va kodi;
- qo'shimcha o'lchov birliklari bo'yicha miqdori;
- bitim harakteri;
- bojxona rejimi turi;
- tovarni jo'natuvchi (qabul qiluvchi) ning kategoriyasi;
- region.

Netto og'irligi — tovarning o'ramsiz sof og'irligi. Bojxona bojini hisoblashda bir qator mamlakatlarda netto og'irligiga tovardan iste'mol etishiga qadar ajratilmaydigan qadoqlangan tovarlar o'ramining og'irligi (gugurt qutichasi, sigaret qutichasi, sigaret qutisi, konserva bankasi, ya'ni og'irligi kiradi).

Tashqi iqtisodiy hamkor mamlakatni valyutasida ifoda etilgan eksport—import operasiyalarining qiymat bahosi, respublika Markaziy Banki ma'lumotlariga ko'ra valyuta qurollari asosida AQSh dollariga o'tkaziladi.

Tovarlar eksporti (importi)ning geografik taqsimoti mamlakatlar bo'yicha tovarlarni ishlab chiqarish xususiyati va iste'mol xususiyatlariga qarab amalga oshiriladi.

Eksport tovar belgilayotgan mamlakat bo'yicha ifodalanadi.

Import ishlab chiqariuvchi mamlakatda aks etadi.

Tovarni olib borish (iste'mol etish) mo'ljallangan mamlakat deganda, yuk tushirilayotgan paytda, keyinchalik tovar iste'mol etiladigan yoki qayta ishlanadigan yakuniy mamlakat sifatida ma'lum bo'ladigan mamlakat tushuniladi.

Tovarlar kelib chiqishi (ishlab chiqarish) mamlakati bu — mazkur tovarlar ishlab chiqaruvchi yoki ishlov beruvchi mamlakatdir.

Maxsus bojxona statistikasi. Maxsus bojxona statistikasi tomonidan hisobga olingan bojxona rejimlari bo'yicha tovarlarni olib chiqish va olib kirish.

Maxsus bojxona statistikasining bo'limlari:

Yuk bojxona deklarasiyalari bazasi.

Tashqi savdo statistikasi tomonidan hisobga olingan bojxona rejimlari bo'yicha tovarlarni olib chiqish va olib kirish.

Bojxona to'lovlari — bu bo'lim tashqi iqtisodiy faoliyat daromadlarini hosil bo'lishida bojxona to'lovlarining o'rnini belgilaydi.

Valyuta nazorati — eksport tovarlarining miqdoriy va qiymat ifodalari bo'yicha shuningdek, valyuta foydasining kelib tushushi muddatlari va summalarini har bir kontrakt bo'yicha naqd chet el valyutasini hisobga olgan holda.

Musodara qilingan tovarlar — bu bo'lim bojxona qoidalarini buzilishi va tashqi savdo aylanmasidagi kontrabanda hollari soni, musodara qilingan tovarlar qiymatini xarakterlaydi.

Xalqaro postga jo'natmalari — bu bo'lim posilka va boshqa pochta jo'natmalari (respublika kiritilgan va chiqarilgan) hisobini aks ettiradi.

Xalqaro yuk tashishlar — bu bo'lim chegarani kesib o'tayotgan transport vositalari hisobini aks ettiradi.

Passajir tashuvi — ushbu bo'lim esa respublika chegarsini kesib o'tayotgan shaxslar hisobini aks ettiradi.

9 bob. Tashqi iqtisodiy faoliyat bojxona munosabatlari

9.1 Xalqaro savdoni boj tarifi bilan tartibga solish

Bosh tarifi ikki asosiy element — tovar nomenklaturasi va bojlar stavkalaridan iborat. Ular jamlikda bir qator mamlakatlar va import tovarlar toifalari bo'yicha ham, ichki bozorni himoya qilish darajasi bo'yicha ham boj tarifining ta'sirini tezkor tarzda o'zgartirish imkonini ta'minlaydi.

9.1.1 Boj tarifining tovar nomenklaturasi

Bojxona bojlari stavkalarini tarifda tizimlashtirish tovar nomenklaturasi — tovarlarniig tabaqalashtirilgan ro'yxatiga muvofiq amalga oshiriladi. Uning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib tovarlarni tavsiflash va har bir tovar pozitsiyasining kodini berish hisoblanadi. Vazifasiga bog'liq holda tovar nomenklaturasining quyidagi turlari ajratiladi: tovarlar olib kirilishi va olib chiqilishi chog'ida bojxona bojlarini undirish uchun qabul qilingan bojxona tarif nomenklatura; tovarlar olib kirilishi va olib chiqilishi to'g'risidagi statistik ma'lumotlarni yig'ish uchun foydalaniladigan statistik nomenklatura; bojxona tarif va statistik nomenklaturani birlashtiradigan qo'shma tarif — statistik nomenklatura.

Bugungi kunda dunyodagi ko'pchilik mamlakatlarda tovarlarni tavsiflash va kodlashtirishning uyg'un tizimi (HS)ga asoslangan qo'shma tovar nomenklaturalardan foydalaniladi. HS bojxonalar hamkorligi kengashi (hozirgi vaqtda u — Jahon bojxona tashkiloti) tomonidan tayyorlangan va Bryusselda 1983 yil 14 iyunda imzolangan Tovarlar tavsiflash va kodlashtirishning uyg'un tizimi to'g'risida xalqaro konvensiya doirasida qabul qilingan. U kuchga kiritilganiga

qadar Bryusselda 1950 yil 15 dekabrda tuzilgan Tovarlarini Boj tariflarida tasniflash uchun nomenklatura to'g'risida konvensiya amal qilgan. Yangi konvensiyaning qabul qilinishini tovarlar ishlab chiqarish texnologiyasi va xalqaro savdo tarkibida yuz bergan o'zgarishlarni hisobga olish zarurati yuzaga keltirgan. Tavsiflashning uyg'un tizimi 1988 yil 1 yanvardan kuchga kirdi. Respublikamiz esa 2000 yil 1 yanvardan amal qila boshladi.

HSga qo'shilgan mamlakat o'z zimmasiga quyidagi majburiyatlarni oladi:

- HS barcha tovar pozisiyalari va yordamchi pozisiylaridan, shuningdek ulapga taalluqli bo'lgai raqamli kodlardan biror – bir to'ldirish yoki o'zgartirishlarsiz foydalanish;
- HSni sharhlash asosiy qoidalarini, shuningdek bo'limlar, guruhlar, tovar pozisiyalari va yordamchi pozisiyalarga doir barcha izohlarni qo'llash hamda HS bo'limlari, guruhlari, tovar pozisiyalari yosh yordamchi pozisiylarining mazmunini o'zgartirmaslik;
- HSda qabul qilingan kodlashtirish tartibiga rioya qilish;
- agar bunday matariallarni cheklash, masalan, tijorat sirini saqlash yoki davlat xavfsizligi manfaatlariga zarar etkazish singari alohida holatlar tomonidan yuzaga keltirilmagan bo'lsa, tovarlarni olib kirish yoki olib chiqish bo'yicha o'z statistik ma'lumotlarini HS olti belgili kodiga muvofiq yoki tasniflashning yanada chuqurroq darajasida e'lon qilish.

MDHning HSga asoslangan TIF TN 1995 yil 3 noyabrdagi Mustaqil davlatlar hamdo'stligi Tashqi iqtisodiy faoliyatning yagona tovar nomenklaturasi to'g'risidagi bitim bilan tasdiqlangan, Shu tariqa, HSga asoslangan TIF TNni qo'llash zarurati O'zbekiston ishtirok etadigan bir qator xalqaro konvensiyalardan kelib chiqadi.

HSning 2002 yildagi versiyasi, avvalgi variantdan farq qilib, bugungi kunda dunyoda bojxona maqsadlari uchun ham, statistik hisobot, tashqi iqtisodiy faoliyat monitoringi uchun ham tasniflanishi kerak bo'lgan xilma – xil tovarlarni aks ettiradigan eng to'liq versiya hisoblanadi. Chunonchi, agar yangi paydo bo'lgan mahsulot, buyum mavjud belgilanishlardan birortasiga tug'ri kelmasa, unga o'z kodi beriladi. Misol uchun, "Elena" turidagi yog'ni va odatdagi sariyog' na standart margarin deb aytib bo'lmaydi. Oziq – ovqat mahsulotlarining mazkur turi uchun "sutli pasta" tushunchasi joriy etilgan. Bunday misollar esa birgina emas. Ishlab chiqaruvchilar iste'molnilariga ko'plab yangi mahsulotlarni taqdim etmoqdalar. Maishiy texnika zamonaviylashtirilyapti, endi magnitofonni shunchaki ovoz chiqaradigan asbob deb hisoblab bo'lmaydi. Unga radiopriyomnik, rangli musiqa kiritib qo'yilishi mumkin. Shu sababli musiqa markazi singari tushuncha turmushdan faol o'rin oldi.

9.1.2 Bojxona bojining stavkasi

Boj tarifining asosiy elementi bojxona boji hisoblanib, u davlat tomonidan tovar uning bojxona chegarasi orqali olib o'tilishida undiriladigan va bunday olib o'tishning ajralmas sharti hisoblangan majburiy badaldan iboratdir. Bunday to'lovning hajmi bojxona bojining stavkasi deb ataladi. Xalqaro amaliyotda boj stavkalarining uch turi uchraydi, ular hisoblab chiqarish usuli bo'yicha farqlanadi.

1. Boj undiriladigan tovarning bojxona qiymatiga foizlarda hisoblab yoziladigan *advalor bojlar* ko'pchilik mamlakatlarda ishlatiladi. Ularni qo'llash dunyoda yuksak texnologik, katta darajada ishlov berilgan mahsulot narxlari oshganda bojxona yig'implarining ko'payishiga imkon yaratadi. Shu sababli bojxona qiymatini belgilash

uslubiyati tovarlarni ichki bozorga kiritishni tartibga solishda katta ahamiyat va ta'sir kasb etdi, advalor shaklda qayd etilgan bojning mutlaq pul ifodasi unga nisbatan hisoblab chiqariladi. Tegishli uslubiyat ta'sirchan dastaklardan biriga aylandi, uning yordamida davlatlar tovarlarga yo'l berishni qisqartirib, bojxona qiymatini oshirish hisobiga ularning raqobatga bardoshlilikini pasaytirmoqda. Ko'p jihatdan mazkur imkoniyat Jahon savdo tashkiloti doirasida Bojxona maqsadlarida tovarlarni baholash to'g'risida bitim qabul qilinishi bilan cheklangan.

2. *Xos bojlar* belgilangan miqdorda boj undiriladigan tovarning hajmi, og'irligi yoki birligidan hisoblab yoziladi, u rivojlanayotgan mamlakatlarda eng ko'p qo'llaniladi. Advalor bojdan prinsipial farq xalqaro bozorlarda narxlarning o'sishi chog'ida o'zgarishning xususiyatida ko'rinadi — xos bojlar xalqaro konyunkturaga bevosita bog'liq emas.

3. *Aralash (kombinasiyalashgan) bojlar* yuqorida tavsiflangan ikki tur — advalor va xos bojlarni birlashtiradi. Ayni vaqtda tovarning bojxona qiymatidan va fizik o'lchov birligidan foiz ko'rinishida hisoblab yozilgan boj undiriladi.

Bir qator hollarda milliy qonun hujjatlarida tarif kvotalari nazarda tutilishi mumkin. Ular, agar importning umumiy hajmi cheklash — kvotadan oshib ketmasa, stavkaning belgilangan pasaytirilgach qiymatini qo'llash imkoniyatini beradi. Agar u oshib ketsa, oshirilgan stavka qo'llaniladi. Imtiyozli boj stavkasi bo'yicha tovarlarning muayyan miqdori importi uchun imtiyozli (preferensial) rejimning taqdim etilishi tarif bilan kvotalashning bir variantidir. Tarif bilan kvotalash aralash tUSDagi savdo — siyosiy dastak hisoblanib, iqtisodiy va ma'muriy ta'sir ko'rsatish elementlarini birlashtiradi.

9.2 Tashqi iqtisodiy faoliyatning xalqaro reglamentasiyasi

Tashqi iqtisodiy faoliyatni xalqaro miqyosda tartibga solish BMT tizimidagi va unga kirmaydigan xalqaro tashkilotlar doirasidagi shartnomalarda ko'rsatilgan, Bu 1947 yilda jahon savdosining boj – tarif masalalarini tartibga solish uchun tuzilgan tarif va savdo bo'yicha asosiy kelishuv – Savdo va tariflar bo'yicha bosh assambleya (GATT)dir. Barcha mamlakatlarning xalqaro savdoni erkinlashtirishga intilishi Savdo va tariflar bo'yicha bosh assambleya doirasidagi kelishuvlarni ishlab chiqish va qabul qilish tamoyillarida aks etadi. Ular quyidagilardan iborat:

- kamsitmaslik, o'zaro eng qulay usullarni taqdim etish;
- milliy bozorlarni muhofaza qilishning ko'prok tarif vositalaridan foydalanish;
- bojxona tariflarini uzluksiz tarzda tushirib borish;
- savdo – siyosiy yon berishda hamkorlik qilish;
- mojarolarni kengash va muzokaralar yordamida echish.

TIFning bevosita qatnashchilari uchun tarifsiz cheklashlarni, ya'ni chet el tovarlarining ichki bozorga kirishiga har xil to'siqlarni tartibga solish bo'yicha Savdo va tariflar bo'yicha bosh assambleyaning oxirgi ikki – Tokio va Urugvay raundlari muhim ahamiyat kasb etadi. Savdo va tariflar bo'yicha bosh assambleyaning tasnifiga ko'ra, tarifdan tashqari cheklashlar ushbu guruhlariga bo'linadi:

1. Davlatning tashqi savdo tadbirlarida qatnashishi: eksport tovarlarini subsidiya qilish, tovarlar sotib olishning davlat tizimi.
2. Importning bojxona va ma'muriy rasmiyatchiliklari; dempingga qarshi bojlar, bojxona qiymatini baholash usullari, tovarni yetkazib berishda zarur bo'lgan hujjatlarga qo'yiladigan talablar.

3. Iste'molchilar xavfsizligi, sanitariya me'yorlari bilan bog'liq o'lchov va talablar, o'rash – qadoqlashga bo'lgan talablar.

Xozirgi paytda ekologiya xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq chegaralashlar kuchaymokda. Bular:

- tarkibida xavfli moddalar belgilangan chegaradan ortiq bo'lgan mahsulotlarni import qilishni taqiqlash;
- o'rab – joylangan va ishlatib bo'lingan materiallarni qayta qabul qilish bo'yicha majburiyatlar;
- ekologiya soliqlari va boshqalar.

4. Eksport va importni miqdoriy va valyutaviy jihatdan cheklashlar.

Miqdoriy cheklashlar – to'g'ridan – to'g'ri import va eksportni cheklashga qaratilgan to'siqlardir. Zamonaviy savdo – siyosiy amaliyotida miqdoriy cheklashlarning ikki asosiy turi qo'llanadi. Bular: kontinentlashtirish va lisenziyali tartibi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda"
T. "O'zbekiston" 1999 y.
Arutyunyan G.V. "Pravovoe regulirovanie tamojennix platejey"
"Uchebnoe posobiye" M. 2002 y.
2. "Bojxona va soliq xabarlari. Moliyaviy – iqtisodiy ro'znoma".
T. 2003 – 2005 y.
3. Dodobaev Yu.T. "Bojxona ishi" 1 – 3 jild, Kuvasoy. 2000 y.
4. Komilov U.T. "Osnovi tamojennogo dela" T. Sharq 1998 y.
5. Ershov A.D. "Mejdunarodnoe tamojennoe otnoshenie.
Uchebnoe posobie" IVESEP. 2000 y.
6. Nazarenko V.M., Nazarenko K.S. "Tamojennoe obslujivanie
VED". M. Ekzamen, 2001 y.
7. Shoraxmedov Sh. Umumiy taxriri ostida «Bojxona fanlari ilmiy
asoslari». T. 2002 y.
8. Popov X.A., Popova L.X. "Osobennosti gosregulirovanie
vneshnetorgovoy deyatel'nosti v sovremennix usloviyax" M.,
2002 y.
9. "O'zbekiston Respublikasi bojxona qonunchiligi"
T: Sharq 1998 – 2005 yy.
10. «O'zbekistonda bojxona va xalqaro transport xizmatlarini
takomillashtirish» mavzusidagi rempublika ilmiy – amaliy
anjumani ma'ruzalar to'plami. TDIU, OHBI. T. 2003 y.
11. "Ekonomicheskoe obozrenie" Jurnal. 2003 – 2005 yy.

Ilova

Bojxonaning asosiy tushunchalari:

- ***tovarlar*** — har qanday ko'char mol—mulk, shu jumladan valyuta va valyuta boyliklari, elektr, issiqlik energiyalari va energiyaning boshqa turlari, intellektual mulk ob'ektlari, oldi—sotdi yoki ayirboshlash ob'ekti hisoblanuvchi bajarilgan ishlarning, ko'rsatilgan xizmatlarning natijalari;
- ***transport vositalari*** — yo'lovchilar va tovarlarni tashish uchun foydalaniladigan vositalar, shu jumladan konteynerlar va boshqa transport uskunalari;
- ***tovarlar va transport vositalarini olib utuvchi shaxslar*** — tovarlar va transport vositalarining mulkdorlari, ularning sotib oluvchilari, egalari yoxud ular bilan qonun hujjatlariga muvofiq etarli bo'lgan boshqacha tarzda ishtirok etuvchi shaxslar;
- ***tashuvchi*** — tovarlarni amalda olib o'tuvchi yoxud transport vositasidan foydalanish uchun mas'ul shaxs;
- ***deklarant*** — tovarlarni olib o'tuvchi, tovarlar va transport vositalarini o'z nomidan deklarasiyalovchi, ko'rsatuvchi va taqdim etuvchi shaxs yoki tovar olib o'tuvchi shaxs nomidan ish olib borayotgan bojxona brokeri;
- ***bojxona chegarasidan olib utish*** — tovarlar yoki transport vositalarini har qanday usulda, shu jumladan xalqaro pochta jo'natmalarini yuborish. quvur transportidan hamda elektr uzatish liniyalaridan foydalanish yo'li bilan bojxona hududiga olib kirish yoki olib chiqish harakatlarini amalga oshirish.

Shunday hakatlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- tovarlar yoki transport vositalari bojxona hududiga olib kirilganda, shu jumladan erkin bojxona zonalari va erkin omborlar hududidan olib kirilganda — bojxona chegarasidan amalda o'tish;
- tovarlar yoki transport vositalari bojxona hududidan olib chiqilganda, shu jumladan erkin bojxona zonalari va erkin omborlar hududiga olib chiqilganda — bojxona deklarasiyasini taqdim etish yoki tovar yoxud transport vositalarini olib chiqish maqsadini amalga oshirishga bevosita qaratilgan o'zga harakatni bajarish;
- **bojxona nazorati** — qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalarga rioya etilishini ta'minlash maqsadida bojxona organlari amalga oshiradigan tadbirlar majmui;
- **bojxona ta'minlovi** — bojxona organlari plombalar, muhrlar bosish, raqamli, harfli va boshqa markalar, qiyoslash belgilari qo'yish, shtamplar bosish yo'li bilan amalga oshiradigan tovarlar va transport vositalarini, binolar va boshqa joylarni qiyoslash vositasi;
- **bojxona rasmiylashtiruvi** — tovarlar va transport vositalari ustidan bojxona nazoratini ta'minlash maqsadida bojxona organlarining mansabdor shaxslari amalga oshiradigan operatsiyalar majmui;
- **bojxona rejimi** — respublikaning bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlar va transport vositalarining maqomini bojxona maqsadlari uchun belgilovchi qoidalar majmui;

- ***chiqarishga ruxsat berish*** — bojxona organlarining bojxona rasmiylashtiruvidan o'tgan tovarlar yoki transport vositalarini shaxsning to'la ixtiyoriga berishi;
- ***shartli chiqarib yuborish*** — shaxsning belgilangan cheklashlar, talablar yoki shartlarga rioya qilish majburiyatlarini o'z zimmasiga olishi bilan bog'liq holda tovarlar va transport vositalarini chiqarib yuborish;
- ***iqtisodiy siyosat choralari*** — tovarlar va transport vositalarini respublikaga olib kirish hamda respublikadan olib chiqishga doir cheklovlar bo'lib, ular kvota belgilashni, lisenziyalashni, shuningdek respublika iqtisodiyotining jahon xo'jaligi bilan o'zaro hamkorligini tartibga solib turuvchi boshqa choralarni o'z ichiga oladi;
- ***dastlabki qaror*** — tovarning tasnifi, uning boj qiymati, qaysi mamlakatda tayyorlanganligi, bojxona to'lovlarining miqdoriga hamda bojxona ishiga oid boshqa masalalarga taalluqli bo'lgan bojxona organi chiqargan qaror.